


D.Q. Zaynobiddinov

# JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA AHLOQIY, ESTETIK, AQLIY VA MEHNAT TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Monografiya







**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**



**ZAYNOBIDDINOV DILSHODBEK QOBILOVICH**

**JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA AHLOQIY,  
ESTETIK, AQLIY VA MEHNAT TARBIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**MONOGRAFIYA**

UO'K: 118.232  
KBK: 87.817  
Z-46

Z-46. Jismoniy tarbiya jarayonida ahloqiy, estetik, aqliy va mehnat tarbiyasini takomillashtirish yo'llari. Monografiya / D.Q. Zaynobiddinov – «Andijon nashriyot-matbaa» MChJ. – 2021. – 80 bet.

ISBN 978-9943-7714-1-3

© D.Q. Zaynobiddinov 2021 ©  
«Andijon nashriyot-matbaa» 2021

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI  
AXBOROT - RESURS MARKAZI

UO'K-11732

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I BOB. JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA TARBIYANING BOSHQA YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YILISHI</b> .....	9
1.1. Mutafakkirlarning ta'lim- tarbiya haqidagi fikrlari .....	9
1.2. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy tarbiyani yo'lga qo'yilishi ..	12
1.3. Jismoniy tarbiya jarayonida ahloqiy tarbiyani yo'lga qo'yilishi	19
1.4. Jismoniy tarbiya jarayonida estetik tarbiyani yo'lga qo'yilishi	24
1.5. Jismoniy tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasi.....	26
<b>II BOB. JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA AHLOQIY, ESTETIK, AQLIY VA MEHNATGA OID TARBIYANI AMALGA OSHISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI</b> .....	35
2.1 O'z-o'zini tarbiyalash tarbiyaning asosiy metodi .....	35
2.2 Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati .....	37
2.3 Sportchilarni ahloqiy tarbiyasining bugungi kundagi ko'rinishlari mavzusi bo'yicha muammoli vaziyat.....	41
2.4 Jismoniy tarbiya jarayonida har tomonlama tarbiyalash tamoyillari .....	43
<b>III BOB. O'QUVCHILARDA MA'NAVIY – AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI YOLLARI VA USULLARI</b> .....	47
3.1 O'quvchilarda ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalash hozirgi davrning muhim muammosi .....	47
3.2 O'quvchilarining ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganlik darajasining tahlili .....	54
3.3 Ta'lim jarayonida o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari .....	58
3.4 O'quvchilarida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalashda sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarning o'rni .....	69
<b>Xulosa va amaliy tavsiyalar</b> .....	77
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	79

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Ilm-fanimizning hozirgi zamondagi dolzarb vazifalaridan biri yoshlarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash milliy g'oyamizni nazariy jihatdan yanada takomillashtirishdan iborat. Talabalar ongida milliy g'oyani singdirish orqali ularning dunyoqarashini shaxsiyatini shakllantirish bugunning dolzarb masalasidir.

Hozirgi davrdagi o'zgarishlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, madaniyatlilik, ijodkorlik, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida mas'uliyatni his etishni talab etadi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muamrolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

**birinchidan**, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

**ikkinchidan**, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

**uchinchidan**, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

**to'rtinchidan**, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi

bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

**bashinchidan**, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

**oltinchidan**, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy, milliy ruhda tarbiyalashda jismoniy tarbiya darslarining o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya yoshlarni milliy, ma'naviy va ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish borasidagi faoliyatni takomillashtiradi.

O'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon talabiga mos ravishda takomillashtirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasida ham muhim omil sifatida qaralgan har tomonlama etuk, jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, jasur, qat'iyatli, Vatanni himoya qiladigan irodali shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

Xalqimizning kelajagi, jamiyatimiz taraqqiyoti ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning tavsiyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga, munosabatiga bog'liq. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchisi ham bundan mustasno emas. Shu sababli tanlangan mavzuimiz **dolzarb ahamiyatga ega**.

Shuni nazarda tutgan holda biz tanlagan mavzu – "Jismoniy tarbiya jarayonida ahloqiy, estetik, aqliy va mehnatga oid tarbiyani takomillashtirishning yo'llari" – kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shaxsni ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini ochish hamda rivjlantirish, ular negizida o'quvchi – yoshlarda mustahkam ahloqiy sifatlarni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini tashkil etish O'zbekiston Respublikasida barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifalaridan biridir.

Jismoniy tarbiya – yosh avlod shaxsining ushbu xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning milliy – tarixiy ildizlarga ega bo'lgan qudratli omil sifatida xalq og'zaki ijodida, SHarq mutafakkirlarining asarlarida, xalq pedagogikasida ham o'z aksini topgan. SHu boisdan, mamlakatimizning bugungi kunida o'quvchilarni ham jismoniy, ham aqliy, ham ahloqiy, ham

estetik, ham mehnat tarbiyasi jihatidan komillikka erishishlari uchun mos sharoit yaratish hukumatimizning doimiy diqqat markazidadir.

“Jismoniy madaniyat davlat ta’lim standartlari” o’quvchilardan nafaqat o’zlarida jismoniy madaniyatni kamol toptirish, balki sport estetikasini to’g’ri idrok va talqin etish, shu bilan birga shaxsning jismoniy, ma’naviy, ahloqiy bilimlarini ham talab qiladiki, bular o’quvchilarning jismoniy o’z-o’zini takomillashtirishning sabab va ehtiyojini tarkib toptirish, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi tarbiya yo’nalishlariga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko’rsatilgandek, o’quvchilarda o’z-o’zini jismoniy takomillashtirishga bo’lgan ehtiyojini tarkib toptirish, ularning sport va jismoniy tarbiyaga qiziqishlarini rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilgan. Xususan, jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standartlarida quyidagilar qamrab olingan:

- Jismoniy tarbiya darslari;
- Mashg’ulotlarning sinfdan tashqari shakllari;
- Maktabning umumiy tadbirlari: kechalar, bayramlar, musobaqalar, spartakiadalar, viktorinalar va hokozo;
- Mustaqil mashg’ulotlar, shu jumladan, tarixiy-nazariy va boshqa xarakterdagi ishlarni bajarish hamda shu kabi o’quvchilarni jismoniy tarbiyalash vositalarining xilma-xil yo’llari.

**Bitiruv ishiniing maqsadi:** Umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslarida hamda sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarni tarbiyaning boshqa yo’nalishlari, aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, estetik tarbiya va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning pedagogik tizimini o’rganish.

**Bitiruv ishiniing farazi:** jismoniy tarbiya darslarida hamda sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarni tarbiyaning boshqa yo’nalishlari, aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, estetik tarbiya va mehnat tarbiyasini amalga oshirish samrali bo’lar edi, agarda:

- jismoniy tarbiya mashg’ulotlari nazariy-metodologik, psixologik-pedagogik asoslarda o’tkazilsa;
- o’quvchilarni jismoniy tarbiya mashg’ulotlariga bo’lgan ongli munosabatini va faolligini oshirilsa;
- tarbiyaviy mazmundagi materiallar, qulay sharoitlar, samarali shakllar, turli xil metod va uslublar, inson tarbiyasiga ta’sir etuvchi vositalardan foydalanish to’g’ri yo’lga qo’yilsa;
- o’quvchilarda kerakli tarbiya elementlarini shakllantirish bir butun pedagogik tizim asosida amalga oshirilsa;
- o’quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari ishlar o’zaro aloqada, yagona maqsad bo’yicha olib borilsa;



- o'quvchilarni jismoniy tarbiya vositasida har tomonlama tarbiyalashda o'quvchi shaxsini jismoniy va ruhiy imkoniyatlari nuqtai nazaridan individual xususiyatlari e'tiborga olinsa;

**Bitiruv ishining vazifalari:**

1. Mavzuni pedagogik nazariya va amaliyotdagi ahvolni o'rganish hamda tahlil qilish;

2. Turli tarbiyaning nazariy asoslarini aniqlash va uni ijtimoiy – pedagogik muammo sifatida tahlil etish.

3. O'quvchilarni o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tarbiyaning turli tomonlari psixologik aspektlari va pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

4. Jismoniy madaniyatning estetik jihatlari va go'zallik mezonlarini aniqlash.

5. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashni takomillashtirish yo'llari yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbir etish.

**Bitiruv ishining ob'ekti** - jismoniy tarbiya darslarida hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash jarayoni.

**Bitiruv ishining predmeti** - jismoniy tarbiya darslarida hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni tarbiyaning boshqa yo'nalishlari, aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, estetik tarbiya va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning pedagogik tizimi.

**Bitiruv ishining metodologik va nazariy asoslarini** O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning jismonan sog'lom, ma'naviy etuk, har tomonlama (garmonik) shaxsni tarbiyalashga qaratilgan g'oyalari, "Ta'lim to'g'risida qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", yurtboshimiz SH.Mirziyoevning barkamol avlod tarbiyasiga farmonlari va nutqlari, "Jismoniy madaniyat" fani bo'yicha ishlab chiqilgan DTS Sharq mutafakkirlarining, ga oid qarashlari hamda fikrlari, ong va faoliyat birligi nazariyasi, shaxsni o'rganishga tizimli yondashuv kabi tamoyillar tashkil qiladi. Shuningdek, "Maktab ta'limini rivojlantirishning davlat umummilliy Dasturi", hukumatimizning jismoniy tarbiya va milliy sportni rivojlantirishga yo'naltirilgan rasmiy me'yoriy hujjatlari metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

**Bitiruv ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv ishining natijalaridan va tavsiyalardan umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlaridagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ishida, bolalar sport maktablari hamda markazlarida; sportning ayrim turlari bo'yicha olib boriladigan metodik ishlarda; talabalarga ma'ruzalar o'qishda; yosh avlodni jismoniy tarbiyalash bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimida; jismoniy tarbiya va sport sohasi xodimlarining seminarlarida ma'ruza sifatida foydalanish mumkin.

**Himoyaga tavsiya etiladigan holatlar:** Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashni takomillashtirish yo'llari

1. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarining o'zaro aloqasi, ularda jismoniy tarbiya vositasida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning hozirgi ahvoli.

2. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash jarayonlari, shakllari, metodlari, vositalari va uslublari.

**Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi:** Bitiruv ishi kirish, 2 bob, xulosa, tavsiyalar, 20 nomdagi adabiyotlar ro'yxati, 4 ta jadval, 1 ta chizmadan iborat. Ishning umumiy hajmi 59 bet.

## I BOB. JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA TARBIYANING BOSHQA YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YILISHI

### *1.1. Mutafakkirlarning ta'lim- tarbiya haqidagi fikrlari.*

O'zbekistonda islohotlar va yangilanish jarayonlari tezkor su'ratlar bilan amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samarasi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq. Respublikamiz bittinchi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilgan "Kadrlar tayyorlash m

illiy dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi qonun" shuningdek "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi farmoni ana shu maqsadni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Bu hujjatlarda ilgari surilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish davlatimiz siyosatining ustuvor sohasi bo'lib qolmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat seza boshlandi. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal ahloq degani hamdir.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarmizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi" deb ta'kidlaydilar. Tarbiya — bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Biz manashunday chuqur ma'naviyat va go'zal ahloqlilikni, insonning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonlarini sharq mutafakkirlari asarlaridan olishimiz mumkin.

Sharq mutafakkirlaridan biri Farobiyning ta'kidlashicha har bir kishining fe'l atvoriga qarab ta'lim — tarbiya ikki xil usul: ixtiyoriy va majburiy usullarda amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim oluvchilar fan va hunar o'rganishga moyillik bildirmasalar, ularga nisbatan rag'batlantirish usuli qo'llaniladi. Maboda ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar majburiy usulni qo'llash mumkin. Farobiyning ko'rsatishicha aqlli kishilar o'tkir zehn — idrokli, fazilatli bo'lishi, o'zining qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarga

yo'naltirishi kerak. Farobiy "Aql to'g'risida" nomli risosida ahloqli odam o'zida o'n ikki xislatni birlashtirgan bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Abu Nasr Farobiyning uqtirishicha insonning barcha qobiliyat va fazilatlarini ikki tomonga ega. Birinchisi- tug'ma irsiy, tabiiy xislatlar bo'lsa, ikkinchisi- tajriba, amaliyot, sharoit ta'sirida tarkib topadigan xislatlardir. Shuningdek bola tarbiyasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan xislatlarni hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning fikricha ta'im-tarbiya yagona jarayon.

Bu jarayonda yoshlarga aqliy va jismoniy, ahloqiy tarbiya berish va hunar o'rgatish nazarda tutiladi. Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida bolani olti yoshidan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yo'ritadi. Ulug' hakim ta'lim jarayonida o'qitishda oddiydan muraktabga qarab borish qoidasiga amal qilish lozimligini uqtiradi, ayniqsa bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish amali bu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino bolalarni yakka- yakka o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim berish afzal ekanligini e'tirof etadi.

Ibn Sinoning inson aqli, bilimi orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishni birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich, ikki xil fikrni idrok etishdir. Aql rivojlanishining uchinchi bosqichida, o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyish mumkin.

Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma istedodini, shuningdek tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib "Alla" ikki vazifani bajaradi deydi. Birinchisi, beshikni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bagishlanadi; ikkinchisi beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan, onaning orzu umidi yo'rak to'ridan silqib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga, butun shuuriga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi anglamagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan o'rganish sezishdan kelib chiqadi.

Buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy "Qutd'g'u bilik" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday deb yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqli, xushli bo'lsa, ota-onaning yo'zi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning ma'suliyatiga asosiy e'tibor beradi. "Kimning o'gli,

qizi erka bo'lsa -deb yozadi u, unda shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligidan bebosh qilib qo'ysa, bolada gunoh yo'q, barcha jaf o'taning o'zida. O'g'il — qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni o'taqilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'gil- qizim bor deb sevinadi, o'gil- qizga -hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu -hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin". Mahmud Qoshg'ariy fikricha, bola asta-sekin hunar o'rganib hayotdan ta'lim olib, bilimdon bo'ladi, chinakam insoniy go'zallikka erishadi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham ta'lim-tarbiya jarayoni munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rta tashlaydi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir-deydi.

Alisher Navoiy tarbiyada insoning o'z-o'zini tarbiyalashga, xato va kamchiliklarini anglab tuzatishiga e'tibor beradi, yanglish va xato kishilik shartidir. Xato va yanglishishni anglab, ogohlangan baxtli kishidir. Kimki e'tirof tomon qaytar ekan, xatosi yo'qoladi. Kimki dalil keltirib, aljiray bersa, xatosini bir karra oshiradi. Mubolag'asi qancha ko'proq esa, yanglishishi shuncha ko'rimliroq bo'lur va o'zini katta ko'rsatib, tortishuvi qancha esa ortiqroq, o'zi xalq o'rtasida shuncha rasvoroq ko'rinur.

Ya'ni, kishi xato qilganda, yanglishganini bo'yniga olsa, - bu yaxshi. Agar o'z xatosiga dalil ko'rsatib bersa, uning xatosi yana ikki barobar ortadi,- deydi alloma.

Yana bir mutafakkirlardan biri Abdurahmon Jomiy yoshlarni faqat bilim va hunar egallashi bilan chegaralanib qolmasdan, balki hayotda yurish-turishda, boshqa kishilar bilan munosabatda, o'zaro muomalada, ahloq normalariga amal qilishni va yoshlikdan yaxshi malakalarni kasb qilishga harakat qilishi kerakligini uqtiradi. A. Jomiy yomon xulqli kishilarni qattiq tanqid ostiga oladi, ularni eng yaramas pastkash kishilar qatoriga qo'shadi va yoshlarni bunday kishilar bilan suhbat qilmaslikka chaqiradi.

A. Jomiy inson hamma vaqt boshqalarga yaxshilik qilishi lozim, chunki yaxshilik kishining eng go'zal fazilatidir deb aytadi, jamiyat va xalq manfaati yo'lida xizmat qilishni u yaxshilik deb tushunadi. Jomiy yoshlarda saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, qanoat, do'stlik, aqllilik kabi xislatlarni singdirmoqchi bo'ladi, bu fazilatlarini ko'klarga ko'tarib maqtaydi.

Mutafakkirlardan Davoniy fikricha bolani yaxshi yoki yomon bo'lishi keyingi tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ham bola, yaramas odatlarni kasb qilmasligi, yaxshi jamoa orasida tarbiyalanishi, badxulq

odamlardan o'zini tortishi, ular bilan hamsuhbat bo'lmasligi darkor. Bola har kungi hayotida zarur bo'ladigan insoniy xislatlar- xushmuomalalilik, yurish-turish qoidalari, ota-onani hurmat qilishi, yolg'on gapirishga o'rganmasdan, doimo to'g'ri va rost gapirishni- shirinsuxanlikni puxta o'rganishi lozim. Bola boshqalar oldida o'zini kamtar tutishi, sergap va maxmadona bo'lmasligi, gapirda me'yoridan ortiq so'zlashni, u- kishini katta nuqsoni deb hisoblaydi. "Ko'p gapirish yaramaydi, chunki u mahmadonalik, dimog' ko'tarilish va yengil tabiatlilik nishonasidir, ana shu narsa hurmatning yo'qolishiga va jiddiyatsizlikka sabab bo'ladi-deydi.

### *1.2 Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy tarbiyani yo'lga qo'yilishi.*

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida ham yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

5. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokozolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va ahloqiy sifatleri, xarakteri, dini, urf-odatleri, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z

bilimlarining chinligini aniqlaydi". Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbollig bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi".

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: "Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyildi".

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilim bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

**Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,**

**Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.**

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi. Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish etakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan "Xilvat dar anjuman", "Safar dar vatan" g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi. Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to'xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich



kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Alloma bilim insomni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur".

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda, aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda, fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan

o'quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko'rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e'tirof etilgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma'lumotlar berib borish, ularga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo'l hisoblanadi.

#### **Talim aqliy tarbiya vositasidir.**

Bolalar bog'chalariga doir tajribalar va o'tkazilgan pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqot ishlari xar hil yoshdagi bolalarga tevarak atrof to'g'risida beriladigan bilimlarning taxminiy xajmini belgilash, ularni murakkablashtirib borish imkonini beradi.

Bolalar bog'chasida talim tarbiya dasturida bolalarning tevarak atrofdagi xayot bilan tanishishlariga doir asosiy bilimlar ko'rsatib berilgan. Bular bolalarni tabiat bilan, har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan, bazi bir ijtimoiy vaqealar, narsalar ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishdir. Bolalar bilimlarini faqat mashg'ulotlar jarayotida olmay balki o'zlarining kundalik hayotlarida o'yinlarda sayr vaqtlarida ham olishlari dasturda ko'rsatib berilgan. Bu dasturning asosiy bo'limlari quydagilardir: tevarak atrof bilan tanishtirish va ishtimoiy hayot xodisalariga qiziqishni ona yurtga muxabbatni tarbiyalash, tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, nutq o'stirish, eng oddiy matematek tasavvurlarni o'stirish, qurish yasash badiiy adabiyot, tasviriy sanat, mo'siqa, jismoniy tarbiya.

Talim dasturi quyidagi prinsipga asoslanib tuzilgan: bilimning bolalarga tushunarligi, har bir yoshga hos bilim va malakalar, ularni sekin asta murakkablashtirib borish, materialning bir maqsadga qaratilganligi, maxalliy matireallardan foydalanish, tabiatdagi voqealar talimga doir bilimlar orasidagi bog'liqlik. 3- yoshgacha bo'lgan bolalarda tevarak - atrofdagi narsalar, ularning sifati xar hil narsalarning nomi hamda ularni ishlatish tog'risida to'g'ri tushuncha bo'lishi lozim.

Bolalarning uy jihozlari va buyumlari bilan tanishtirish ularning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Bu narsa ularning nutqini boyitadi, mustaqillik go'zallik haqidagi tasavvurlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarga talim berish jarayonida tarbiyachi xar hil metod va usullarni qo'llaydilar. Bolalar bog'chalarida keng qo'llaniladigan metodlar

sestemasiga qo'yidagilarni kiritish mumkin, ko'rgazmali og'zaki, amaliy o'yin metodlari. Bolalarga talim berishdan maqsad ularni aqliy tomondan rivojlantirish bo'lganligi sababli yuqoridagi metodlardan shunday foydalanish lozim, ular bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy xulosalar chiqarishga imkon bersin. Metodlar talimning mazmuniga qarab tanlanadi. Agar talim berish metodini mashg'ulotning malum bir qismiga yoki ayrim mshg'ulotga qo'llanilsa, unda metod qismlarga bo'linib usulga aylanib ketadi.

Usul bu metodning bir qismi. Usul mustaqil vazifani hal etmaydi. Metod bajaradigan vazifaga bo'ysunadi. Shuning uchun bitta usulni har xil metodda qo'llash mumkin yoki har xil tarbiyachilar bitta metodga har xil usul qo'shishlari mumkin.

Metodlarning har bir guruxi tarbiyachi va bolalar faoliyatining o'ziga xosligini belgilab beradi.

Bolalarga bilim berishda talim metodlari va ularni tanlash materialning mazmuniga, bolalarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Agar tarbiyachining oldida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni buyumlar, xayvonlar, qushlar bilan tanishtirish vazifasi tursa, ularni ko'zdan kechirish, kuzatish yoki tegishli suratlar diafilmlardan foydalanish eng maqsadga muvofiq metodlardan biridir; agar bolalar xayvonni bilsalaru, lekin uning haqidagi tasavvurlarni aniqlash talab etilganda suratdan foydalanish maqsadga muvofiqdir; agar xayvonlarning xatti xarakati to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish zarur bo'lsa badiiy asarlardan foydalanish mumkin. Bolalarning savollari va unga tarbiyachi va ota onalarning javobi. Bolalar ko'pincha bilgan narsalarni so'raydilar ularning maqsadi o'sha narsaning to'g'riligiga ishonch xosil qilishdir. O'zaro fikrlashishni cho'zish xoxishi boshqalarning fikrini bilishga qiziqish bola savol berish ishtiyoqini uyg'otadi. Bu esa boladagi aqliy rivojlanishni yuqoriroq bosqichga ko'taradi Bolalarning oldida kattalarning obrusi juda yuqori bo'ladi. Bola bilmagan narsasini bilish uchun tarbiyachi va ota onalarga ishonch bilan murojat qiladi. Mana shunda kattalar bolaning savoliga, uni qiziqtirgan narsa to'g'risida javob berishdan bosh tortsalar, bola boshqa manbalardan javob qidirishga urinadi, bular aksariyat ishonchsiz manbalar bo'ladi.

Bu bilan kattalar bolani aqliy rivojlanishiga to'sqinlik qiladilar, uning manaviy o'sishiga yordam beramaydilar. Bolani qiziqtirgan savollarga kattalar xar doim xam batavsil javob berishlari shart emas, agar bu savolga bolaning o'ziga yetarli bilim borligi sezilsa, u xolda bolani mustaqil fikrlashga undash lozim. Bolaning savollari uning bilim darajasiga mos bo'ladi. Avvaliga unga narsa va buyumlar nomini nimaligini aniqlovchi savollar beriladi. Shuning uchun maktabgacha-tarbiya yoshidagi bolalarga

talim berish jarayonida ularning fikrlashishi faollashtiradigan birorta xam metod yoki usul yo'qki, u darrov ijobiysamara bersin. Shuning uchun tarbiyachi talim beruvchi mashg'ulot mazmuniga qarab turli xil metod va usullardan foydalanadi.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruxiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga aloxida etibor berishi lozim. Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

#### **Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy tarbiya.**

Jisman etarli darajadagi rivojlanganlik normal aqliy rivojlanishga sharoit yaratadi.

"Har qanday mehnat – bu aqliy, jismoniydir. Agar aqliy va jismoniy mehnat orasidagi farqni ajratsak, bittasida asosiy rolmi miya, ikkinchisida muskullar o'ynaydi. Miyaning faoliyati muskullarning o'zaro faoliyatiga, muskullar faoliyati esa miyaning boshqarishi orqali amalga oshiriladi", - degan edi Chernishevskiy.

Jismoniy bilimlar asoschisi P.F. Lesgaft ko'rsatganidek, aqliy va jismoniy rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog'liq. Aqlning o'sishi va rivojlanishi o'z navbatida jismoniy rivojlanishni taqazo qiladi.

Jismoniy tarbiyaning vazifasi shunda muvaffaqiyatli hal qilinadiki, shug'ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda tushunib bajarsalar yoki ular sport mashg'ulotlariga qiziqib, tashabbus ko'rsatib ijodiy yondoshsalar, organizmda harakat malakalarini to'g'ri shakllanishi, funksional qobiliyatlarini rivojlanishi uchun umumiy maxsus bilimlarga tayanishlari lozim bo'ladi.

Jismoniy tarbiyada yoki sportda talantni ochish shug'ullanuvchida umumiy jismoniy rivojlanganlik va tayyorlanganlik hamda soha bo'yicha chuqur malakaviy bilimlarga ega bo'lish, bosh miya, muskullar faoliyatidan foydalanish ko'r-ko'ronalikka yo'l qo'ymaslikni talab qiladi. Mashg'ulotga ongli munosabatda bo'lmaslik talantni so'nishiga sabab bo'ladi. Eng havflisi shug'ullanuvchida bir tomonlamalilik, faqat sport bilan shug'ullanishgagina odat shakllanadi – jamiyat uchun esa boqimandalar ko'payadi.

Sport trenirovkasi sirlariga sho'ng'ish, uni tushunish, shug'ullanuvchi mahoratini oshishiga olib keladi. Bunga faqat har tomonlamalilik orqaligina erishish mumkin. Jahon rekordlarini o'rnatish, chempionlik lavozimlari uchun kurashish, sportchidan yuqori saviya, chuqur bilim va jismoniy qobiliyatni talab qiladi. Bunga erishish uchun esa mashaqqatli mehnat, o'tkir intellekt sohibi bo'lishlik talab qilinadi.

Aqliy va jismoniy tarbiyanig o'zaro bog'liqligi masalasi tabiiy-ilmiy fanlarning tadqiqotlari asosida ulug' rus fiziologi I.M. Sechenov va

I.P. Pavlov tomonidan isbotlan-gan. "Men butun hayotim bo'yi aqliy va jismoniy mehnatni sevdim, ko'proq ikkinchisini. Ayniqsa, miyada paydo bo'lgan fikrni hal qilish uchun aqlimni qo'lim bilan bog'laganimda o'zimni juda yaxshi his qilar edim", - deb yozgan edi ulug' rus olimi I.P. Pavlov.

Demak, jismoniy tarbiya intellektning aqliy tarbiyasi bilan o'zaro uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

### *1.3. Jismoniy tarbiya jarayonida ahloqiy tarbiyani yo'lga qo'yilishi.*

Oila muhiti bola dunyoqarashini shakllantirish hamda ahloq me'yorlarini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimizda oilada ahloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratildi. Bu masala davlat siyosatiga ko'tarildi, qator qaror va qonunlar qabul qilindi.

Zero, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda oilada ahloq va odobning dastlabki kurtaklari ildiz otadi. Prezident I. Karimov "Oila hayotning obadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir" deganda ham ana shuni nazarda tutadi.

Gap ahloq tarbiyasi haqida ketar ekan, bir narsani anglab olish lozim. Ahloq odamning jamiyatga, mehnatga, kishilarga, xususiy va ijtimoiy mulkga, oila va jamiyatga nisbatan tarixan vujudga kelgan xalq normalari va qoidalari majmuasidan iborat. Aytish mumkin-ki, ahloqli yurish-turish odatlari shunday bir zaminki, busiz ma'naviy fazilatlar va munosabatlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Alloma A. Avloniy ahloq tarbiyasi haqida shunday yozadi. "Insonlarga eng muhim ziyoda sharaf baland daraja beruvchi ahloq tarbiyasidir".

Odatda ahloq tarbiyasi deganda jamiyat va insonlar uchun ibrat bo'ladigan jami ijobiy hatti-harakatlar yig'indisi tushuniladi.

Ahloqiy tarbiya – bolalar tarbiyasining eng muhimi hisoblanadi. Bola shaxsiyati hayotning birinchi yillaridan boshlaboq shakllanib boradi. Bola har kuni ko'rib, eshitib yurgan narsalarga qarab o'z atrofidagilarga nisbatan tegishli munosabatda bo'ladi. Kattalarning yurish turishi, qiladigan hatti-harakatlari, bolaga va atrofdagi odamlarga qanday qarashi – mana shularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasi shakllanib borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham bolalarga go'daklik vaqtdan boshlaboq ahloq tarbiyani berib borish zarur. Bu tarbiya bolalardan ahloq

sezgilarini, yaxshi muomalada bo'lish va ahloqli yurish-turish odatlarini tarbiyalash, insonning ma'naviy fazilatleri kabi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Bolalarni ahloq-odobli qilib tarbiyalash uzoq muddatli, mashaqqatli jarayon bo'lib, bu jarayonda bolaning hulq-atvori, odob ahloqi shakllanib borishi hech kimga sir emas. Bolalarda ahloq, hulq-atvor va hatti-harakatni tarbiyalashda ularda so'z va ish birligini ta'min etish katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, "Bolaning odobli, ahloqli va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun har bir oiladagi sharoit, oila boshliqlarining namuna bo'lishlari xal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ularning yaxshi odatlari, muomila madaniyat, so'zi bilan ishi birligi farzandlar uchun ibratdir". Bunga ko'pchilik ota-onalar amal qilishmaydi. Misol uchun: Farzandiga ichma, chekma, yolg'on so'zlama kabilarni nasihat qiladi-yu, ammo o'zlarini bunday illatlardan tiya olishmaydi. Bu esa farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

Shuni aytish kerakki, bolalik davrida hosil qilingan odatlar asta-sekin bola qalbida mustahkamlanib, singib qoladi. Shuning uchun ham kundalik turmushda bola odamlarning bir-biriga hurmat-e'tibor bilan qarashini, o'zaro yordam berib turishini, muloyimligi, sofdilligi, mehnatsevarligi kabi madaniy ahloq namunalarini ko'rib turadigan bo'lishi kerak. Fikrimizcha bolalarga ahloq tarbiyasi berishning asosiy usullari quyidagilardan iboratdir:

1. Bolalarning hatti harakatlari va yurish-turishiga ma'lum maqsadni ko'zlab boshchilik qilib borish;

2. Kattalarning yurish turishini o'rnatib qilib ko'rsatish;

Ahloqiy tarbiya bolaning kelgusida ota-onalarga atrofda kishilarga, jamoaga, jamiyatga, ona-vatanga, mehnatga, o'z burchiga munosabatini belgilaydi va asta-sekin shakllanib boradi. Ahloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyatga munosib bo'lish, burch va ma'suliyat, vijdon, or-nomus, sadoqat kabi insoniy fazilatleri har bir bolaning ezgu niyatiga aylantirishdan iborat.

Ahloqiy tarbiya berishning vositalarini qo'yidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Bola atrofida muhit;

2. Oila va ta'lim muassasalarida butun hayotning qanday tashkil etilgani;

3. Atrofdagi katta yoshdagi kishilarning o'z yurish-turishi bilan ibrat ko'rsatishi, ularning ma'naviy qiyofasi;

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bolalarda ahloqiy fazilatleri shakllantirishda jamiyat va undagi munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu

xususida E. Yusupov "Odam ota-onadan tug'iladi, ammo uning ahloq —odob borasidagi fazilatlarini jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi" — deb e'tirof etadi.

Shu o'rinda bolalarga ahloqiy tarbiya berishdagi ba'zi bir muhim jixatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

- ahloqiy tarbiyani muntazamlilik va izchillik asosida olib borish. Bolalarga ahloqiy fazilatlarni hammasini birdaniga singdirishning iloji yo'q. Bu fazilatlarning bolalarda tarkib topish jarayoni ko'p yillarga cho'ziladi va shu boisdan ham bu ishda muntazamlilik bo'lishi kerak. Tarbiyalash jarayoni juda murakkab jarayon bo'lib, u asta-sekin uzluksiz ravishda yangi malaka va ko'nikmalarni o'stirish hamda mustahkamlab borish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu tarbiya jarayonini izchilligini belgilaydi.

- bolalarga ahloqiy tarbiya berishda ularning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Ma'lumki, bolani tarbiyalash ishi uning dunyoga kelgan kunidan boshlanadi. Bola oilada, bog'chada, maktabda, oliy o'quv yurtida, mustaqil amaliy faoliyati davomida ham tarbiyalanadi. SHuning uchun ham bolalarga singdirilgan tarbiya mazmuni ularning yoshiga, jismoniy tayyorligi, tushunchasiga, saviyasi va imkoniyatiga mos bo'lishi kerak.

- bolalarni ahloqiy tarbiyalashning yana bir muhim jihati ularni tarbiyalashda ijobiy fazilatlarga tayanib ish olib borish zarur. Tarbiya jarayonida bolalarda ijobiy fazilatlarga tayanish, ularning xarakteri va xulqidagi eng yaxshi sifatlarni topishga intilish lozim. Bolalardagi salbiy sifatlarga qarshi kurashishda ulardagi ijobiy fazilatlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

- bolalarni tarbiyalashda mahalla va jamoani o'rni beqiyos. Bolalarni ahloqiy tarbiyasi haqida mahalla va jamoatchilikning fikri katta ahamiyatga ega bo'lib, ularni shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Xalqimiz tomonidan, "bir bolaga etti qo'shni ota-ona" degan maqol bekorga aytilmagan.

Bolalar tarbiyasidagi nuqsonlarni ota-ona sezmasligi mumkin, lekin mahalla ahli buni darrov payqashadi hamda ota-onalar bilan birgalikda ularni tuzatishga harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

- bolalarga ahloq tarbiyasi berishda faollik va ularning amaliy faoliyatiga shart-sharoitlar yaratish zarur. Bolalarga beriladigan tarbiya usullari ularning amaliy faoliyati bilan qo'shib olib borilishi tarbiyaning samarali usullaridan biridir. Chunki ahloq tarbiyasi quruq pand-nasihattan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Ahloqiy xis-tuyg'ular, odatlar va tushunchalar avvalo amaliy faoliyatda shakllanib boradi.

- bolaning jismoniy va ruhiy jihatdan qanday rivojlanib borayotganligini mutaxassislar yordamida tekshirib turish ham katta ahamiyatga egadir. Rivojlanishni nazorat qilib borish orqali bolaning rivojlanish darajasini aniqlash va shu asosda ahloqiy tarbiya berishning usullarini qo'llash lozim. Bu ishda ham ota-onalardan katta ma'suliyat talab qilinadi.

- bolalarni ahloqiy tarbiyalashning yana bir muhim jihati ularga qo'yiladigan talab va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish o'rtasida birlik bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonida maktab, oila, mahalla tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish birgalikda, hamjixatlik bilan olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu boisdan maktab tomonidan bolalarga qo'yiladigan talablar ota-onalar bilan birgalikda belgilab olinishi lozim. Qiskasi bu ishda maktab, mahalla, oila hamkorligi yo'lga qo'yilishi kerak bo'ladi.

- bolalarni ahloqiy tarbiyalashda o'rnak, namuna qilish ham katta ahamiyatga ega. Bolalarga hulq-atvor elementlari, masalan, qanday salomlashish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga yordam berish kabilar to'g'risida tushunchalar berish bilan qanoatlanmasdan, bunday hulq-atvor elementlarini amalda o'rnak, namuna qilib ko'rsatish lozim.

Shu o'rinda qayd etish joizki, xulq-atvor elementlarining ko'plab ko'rsatilishi va tez-tez alishtirib turilishi, bolaning murakkab taassurotlardan zo'riqishi hamda bolaga uning qo'lidan kelmaydigan topshiriqlarni berish ahloqiy tarbiyada yaxshi samara bermaydi. Zero, har ishda bo'lganidek, bunda ham me'yor buzilmasligi kerak.

Ma'lumki, o'zbek xalqi juda boy ma'naviy-ahloqiy tarbiya, qadriyatlariga ega. Ahloqiy urf-odatlar, rasm-rusumlar tarbiya usullari ota-onalar uchun ham ibrat maktabidir. Har bir ota-ona mazkur tarbiya usullari jarayonida ustalik bilan qo'llashi orqali yaxshi odatlarni farzandlar qalbiga singdirishi lozim bo'ladi. Bu erda ota-onalar, katta yoshdagi kishilar shaxsiy namunasi va ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega bo'lib, bu bolalar ahloqiy tarbiyasining o'zagini tashkil qiladi.

Aytish mumkin-ki, "bolalar ahloq tarbiyasini oldinroq o'zi yashayotgan atrof muhit va ko'chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o'xshaydilar suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning ham shunday odat va ahloqini qabul qiladilar. Ahloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchidan qabul qiladilar".

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ahloq tarbiyasi murakkab jarayon bo'lib, bu ishda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining



birgalikdagi faoliyati bir-birini to'ldirib borsagina bolalarga ahloq tarbiyasi berishda ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni voyaga etkazish milliy mafkuramizning asosiy tamoyillaridan biridir. SHu sababli ham bolalarga ahloqiy tarbiya berish har birimizning kundalik ishimizga aylanishi lozim.

#### **Jismoniy tarbiya jarayonida ahloqiy tarbiya.**

Har qanday jamiyat azal-azaldan o'zining ahloq normalari va ularning talablari bilan biri-biridan ajralib turgan, ayrim holda keskin farqlangan. Bu talablar va normalardan jamiyatning mavqei, o'rni, darajasini belgilash, baholashda foydalanilgan. Ahloqiy tarbiya ularga jamiyat aozolari rioya qilishdek zarur muammolarni hal qilishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari, sport trenirovkalari, turli xil musobaqalar va ko'ngil ochish tadbirlari ahloq normalarini shakllanishi, tarbiyalanishida vosita rolini hozirgi kunda ham o'ynab kelmoqda. O'zaro munosabat, muloqot, umuminsoniy qadriyatlar, millati, xalqi, davlati, shoni-shuhrati uchun qayg'urish hissiyoti jismoniy tarbiya jarayonida to'g'ridan-to'g'ri tarbiyalangan.

Mamlakat sportchisining ahloqi – bu, millat vakili, mavjud jamiyat kishisining ahloqidir. O'zbek sportchisining ahloq normalari maxsus, alohida emas. Ular ham mazkur jamiyatning oddiy aozosining ahloqiy normalaridan farq qilmaydi. «Sportchining ahloqi» degan ahloqni tuzushga urinish sharq halqlari ahloq normalaridan uzoqlashishga olib keladi.

Biz qisqa fikrli, tor o'ylaydigan faqat sport bilan shug'ullanadigan baquvvat, yaxshi xazm qilish organlariga ega bo'lganlarni emas, fikrlar doirasi keng, maonaviy boy, kirishuvchan, tashkilotchilik qobiliyati yaxshi bo'lgan individni tarbiyalashni nazarda tutmog'imiz lozim. Bu sifatlar ko'proq navqiron mamlakatimiz yoshlari uchun taotaluqlidir.

Sportchi va fizkulturachilar ahloqiy tarbiyasining asosiy xususiyatlari, uni jismoniy tarbiya jarayonini yo'lga qo'yilishi quyidagi yo'nalishda va shaklda bo'lishiga eotibor qaratilmoqda:

1. Jamoatchilik burchiga ijtimoiy munosabatda bo'lish, jamiyat ishini o'z shaxsiy ishi bilan teng qo'yish, jamiyat va davlat ishini darajasini pasaytirmaslik. O'zining jismi tarbiyasiga ongli munosabatda bo'lish, Aholi mudofaasiga doimo tayyorlik har bir jamiyat aozosining umumiy burchiga aylangan bo'lishligi sport hayotidagi maqsadni birligi va umumiyliigi barcha uchun yagona qonuniy ahamiyatga ega bo'lishligi, uni jamoa faoliyatida gavdalanishi, jamiyati jismoniy madaniyati tarixi, anoanalari, millatining shoni uchun jamoaning kuchini umumlashtira bilishlik xususiyati.

Mamlakat sportchisi xalqaro maydondagi g'alabalarning hal qiluvchi omili ekanligi, o'z xalqi, Vatani oldidagi javobgarlik burchini his qilabilishlik xususiyati.

2. Jamoat mulkiga (sport inshooti, undagi jihoz va anjomlarga) ijtimoiy munosabatni sport maydonlarini jihozlash va qayta jihozlash ishida ishtirok etish.

3. Jamiyat a'zolarining ahloq normalarini eng asosiy mehnatga ijtimoiy munosabatda bo'lishlikdir. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish shug'ullanuvchi mehnatda, ishlab chiqarish jarayonida har tomonlama garmonik rivojlanishini amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Sportchini sport natijasiga erishishi mashaqqatli bo'lib, chidamli mehnatni talab qiladi. U rekordlarinigina yangilash bilan mehnat jarayoni uchun iroda, intizom, mehnat qilishga odatni shakllantiradi, mehnatni qadrlashga o'rganadi.

4. Jismoniy madaniyat jamiyat qonunchiligiga bo'ysunishga o'rgatadi. Gimnastika, o'yinlar, sport, turizm va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish tarbiyalanuvchilardan belgilangan qoidaga, tartibga qatoyiyan rioya qilish talabini qo'yadi. Ularga bo'ysunmaslik sportchini yoki tarbiyalanuvchini umumiy maqsaddan uzoqlashtiradi. Sport faoliyati sportchi hayotini havf ostida qoldirishi – masalan, to'p uchun kurashayotganda o'yinchilar bir-biri bilan to'qnashib ketdi. Kimdir aybdor. Qo'pollikka javob qilgingiz keladi. Lekin sportchi ahloq normalari, o'zini qo'lga olish va nizoli holatni tinch yo'l bilan hal qilish uchun lozim bo'lgan ahloqiy normalar, talablarni ustun kelishi xususiyati.

5. Gumanizm, insonni hurmat qilish, kelajak uchun, tinchlik uchun kurashishga zamin, bir-birini qo'llash, yordam berish, ayniqsa, musobaqalar davomida o'zaro o'rtoqlik yordami o'z raqiblariga nisbatan hurmat ruhida bo'lish turkiy xalqlarda o'ta yuqori bo'lganligi, mustahkam salomatlik va jisman tayyorgarlik jamiyat a'zosining ahloq normalari, irodasi va boshqa xususiyatlarni tarbiyalash xususiyatlarini shakllantiradi.

#### *1.4. Jismoniy tarbiya jarayonida estetik tarbiyani yo'lga qo'yilishi.*

Estetik tarbiya (estetik tarbiya — lotincha “estezio” go'zallikni his qilaman) — o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyasilashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Estetik tarbiya insonda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Estetik tarbiya ahloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning mohiyati shundan iboratki, u go'zallikka bo'lgan munosabatni qaror toptiradi.

Go'zallikka bo'lgan tuyg'uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Mehnat faoliyatida paydo bo'lgan go'zallik butun tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o'ziga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyorlangan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funksiyasi, zarurligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidagina emas, balki uning qanchalik go'zalligi bilan ham baholanadi. Go'zallik bu hayotning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir.

Estetik bilimlari aniq tarbiyaviy ishlar – tanlov, viktorina, bayram, ko'rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. Kichik yoshda "barcha bolalar istes'nosiz rasm soluvchilardir" (K.D.Ushinskiy), "har bir bola – shoir" (V... Suxomlinskiy).

O'smirlarda go'zallik ijodkorligiga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday holat ilk yoshliq davrida ham saqlanib qoladi. Biroq, bu davrda badiiy qobiliyat, aksariyat o'quvchilarda o'zgacha bo'ladi. Ular ko'pincha musiqa va raqsga qiziqib tashlaydilar. Demak, o'quvchilarning Estetik bilan oshnoligi turli yosh davrlarida o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Estetik tarbiya – shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda estetik faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Estetik tarbiya shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

#### **Jismoniy tarbiya jarayonida estetik tarbiya.**

Jismoniy tarbiya jarayoni orqali estetik tarbiyaning ham alohida vazifalari hal qilinadi:

1. Muomila estetilasini tarbiyalash. Gimnastika, sport, o'yinlar, turizm, yuqorida bayon etilganidek, insonning barcha xususiy tomonlarini namoyon qiladi. Sportchilarning yurish-turishi sport hayotiy jarayoni va

undan tashqarida havas qilgudekdir. Chunki uning asosida sharq xalqlari ahloq normalari yotadi. Yomon muomala estetikaga zid deb baho beriladi.

2. Inson gavdasining ko'rinishi, shakli-shamoyili tarbiyalanadi. Jismonan garmonik rivojlangan odam gavdasining chiroyliligi, sog'likning hayotiy qobiliyatlarining yaxshiligi belgisidir. Chernishevskiy: «inson go'zalligi haqida gapirar ekanmiz, uning tarkibiy qismi shuni belgilaydiki, bizda u ajoyib taassurot qoldiradi. Unda hayot namoyon bo'ladi, biz uni tushunamiz», - degan edi.

V.V. Gorinevskiy esa: «go'zallik baxtga qarshi sog'lik bilan qarama-qarshilikda emas, nosog'lik esa, aksincha, normadan chetga chiqiboq, go'zallik tushunchasini buzadi», - degan edi.

3. Go'zallikni qabul qila bilish qobiliyatini, sport texnikasi, harakatlar nafisligi ifodasida yashirin go'zallikni his qila olishni tarbiyalash yotadi. Harakat texnikasi go'zallik, harakat nafasoti, uning mazmunini ifodalashning o'zi ham go'zal.

Jismoniy tarbiya jarayonida foydalanilayotgan harakat faoliyati bir-biriga o'xshash emas. Lekin ularning har biri – yugurishning chiroyliligi, balandlikka sakrashda, sakrovchini xarakatlari rekord og'irlikni ko'tarishi texnikasi, gimnastika snaryadlarida «ishlash mahorati»-hammasi go'zal.

Futbol maydonidagi o'yinga qarab baho berish: «chiroyli o'yin bo'ldi», «o'yin juda qiziqarli chiqdi», «jamo'a hujum paytida to'p bilan muomala sanoatining yuqoriligini namoyish qildi» deb va hokazolar.

Sportdagi harakat go'zalligini tushunish tomoshabin yoki shug'ullanuvchiga huzur bahsh etadi. Sport kurashida go'zallikni, chiroylilikni ko'ra olsak, bu bizning estetik didimizni, saviyamizni darajasini ko'rsatadi.

Boksga estetik sport turi emas, deb baho beradilar. Bu mulohaza to'g'rimi? Yuqori texnik tayyorgarlikka ega bo'lgan bokschilar harakati olam-olam zavq beradi. Qolaversa ruhiy, ahloqiy, jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, namoyon qiladi. Yaxshi bokschi mard, irodali, botir bo'lishi amaliyotdan aniq. Did bilan tushunib, tomosha qila olishni o'zi estetik zavq beradi, uni tarbiyalaydi. Takomillashgan harakat texnikasi, avtomatizm darajasidagi harakat ko'nikmasiga ega bo'lgan sportchi yoki fizkulpturachilar harakat faoliyatini erkin, ravon, keraksiz kuch sarflashlarsiz, keraksiz harakat-larsiz bajaradilar.

### *1.5. Jismoniy tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasi.*

Har tomonlama etuk, barkamol avlodni etishtirishda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy

boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. SHuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Pedagogika fanida yosh avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasi juda katta rol o'ynashini rus pedagogi K.D. Ushinskiy bunday deb yozgan edi: «Tarbiyaning o'zi, agar u kishining baxtiyor bo'lishini istar ekan, uni baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehnatiga tayyorlashi lozim». Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

Mehnatning ijtimoiy-ahloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlarini ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlik zarur. Bunda:

- mehnatning inson faoliyatidagi ahamiyatini anglash;
- mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish rag'batini qaror toptirish;
- mehnatga ongli munosabatda bo'lishlikni qaror toptirish;
- mehnatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- mehnatning kishilik taraqqiyoti bosqichlaridagi roli va o'rnini anglash;

o'tmish ajdodlarimizning mehnatini ulug'lovchi qadriyatlarini anglash va shu kabilar.

Ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini olib borish maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi dasturi namunaviy xususiyatga ega. Unda maktab, o'qituvchi va o'quvchilari mehnat faoliyatini baholash bo'yicha ta'lim va tarbiya natijasiga nisbatan davlatning minimum (eng quyi) talablari aks etadi.

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham

o'zgarimoqda, u o'zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko'nikmasi hamda holatlarni ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Mazkur adabirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo'lib, shaxsni yo'natiruvchi xususiyatga egadir.

### **Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari**

Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari va xo'jaliklarning dalalarda olib boriladi.

Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlarini shakllanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta'limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, Umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;

- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohida bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);

- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

Ayni vaqtda, juda ko'plab maktablarda yordamchi xo'jalik mavjud. Korxonada va xo'jaliklar ta'lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasi ni tashkil etishga ko'maklashmoqdalar. O'quvchilar ishlab chiqarish sub'ektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo'yimoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma'lum faoliyatni bajarishda mas'uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko'rsatish, o'z aqliy va jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga bo'lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyasiviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab etilishiga erishish;

- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish;

- o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish va hozozolar.

Mehnat ta'limi va tarbiyasi ning tashkiliy-metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo'lishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyasiviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo'nalishidagi tadbirlarning o'rin olishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an'anaviy va noan'anaviy shakllarda tashkil etiladi.

### **Jismoniy tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasi**

Jismoniy tarbiya sestemasida jismoniy tarbiya bilan mehnat tarbiyasi o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Qobuliyatiga yarasha mehnat qilish insonning hayotiy ehtiyoji, vijdon ishi va fuqorolik burchidir. Mehnat shaxsning har tomonlama komol topishiga qudratli omildir. U juda katta shakllantiruvchi kuchga ega: kishini ongini o'zgartiradi, jismoniy va ma'naviy qobuliyatlarini rivojlantiradi. Demokmatik jamiyatimizning har bir fuqorolarida, birinchi navbatta mehnatga muhabbat tarbiyalash borasida katta g'amxo'rlik qilmoqda.

Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasining o'zaro bog'liqligini quyidagicha ta'riflash mumkun. Bir tomondan jismoniy tarbiya protsessi, kishini sog'ligini mustaxkamlab va jismoniy qobuliyatlarini takomillashtirib, uning ish qobuliyatlarini oshiradi, mehnat qilish so'g'lom organizm uchun zarur ekanligini tushinib olishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, mehnat tarbiyasi kishining aql idrokini, irodasini va jismoniy imkoniyatlarini har tomonlama ribojlantirib, jismoniy tarbiyani maqsadga qaratilgan qiladi hamda jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda kishida mehnatga muhabbat tartib toptiradi.

**Mehnat tarbiyasini mazmuni.** Mehnat tarbiyasi tizimida har hil mehnat turlaridan foydalaniladi. Quyidagi mehnat turlari bevosita jismoniy tarbiya bilan bog'liqlikda qo'llaniladi;

1. *Shug'ullanuvchilarning harakat tajribalarini egallash, jismoniy qobuliyatlarini takomillashtirish yuzasidan olib boradigan mustaqil ishlari yuzasidagi o'quv mehnati.*

2. *Jismoniy mashq qilishga doir amaliy mashg'ulotlar davomida o'z o'ziga xizmat ko'rsatish yuzasidan bo'ladigan eng oddiy mehnat protseslari.*

3. *Jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda, lekin jismoniy tarbiya protsesi bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan ishtimoiy foydali mehna.*

4. *Qishloq ho'jaligida, sanoatda, aholiga hizmat ko'rsatish sohasida shug'ullanuvchilarni jismoniy tarbiya protsesi bilan bog'liq holda amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini tashkil etishning eng yuksak formasi sifatidagi unumli mehnat.*

Ko'rsatib o'tilgan mehnat turlarining har birini qarab chiqamiz:



**O'quv mehnati.** Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'qish- bu mehnat ekanligi, hosil qilinadigan bilim, ko'nikma va malakalar esa shug'ullanuvchilar mehnatining natijasi ekanligi e'tirof etilgan.

Har qanday mehnat, shu jumladan, o'quv mehnati ham, kishi o'z gavdasini boshqara bilishini, ayniqsa, uning qo'l harakatlarini muvofiqlashgan bo'lishini talb etadi. Jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan o'quv mehnati asosan jismoniy mehnatdir.

Jismoniy tarbiya jarayonidagi o'quv mehnati, agar u to'g'ri yo'lga qo'yilsa, insonning mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy va aqliy fazilatlarni rivojlantiradi hamda takomillashtiradi. P. F. Lesgaft masalaning shu tomoniga alohida ahamiyat bergan edi. U bunday deb yozgan edi: "O'z ishini mohir ustasi bo'lgan har qanday ishchi bajarmoqchi bo'lgan ishi uchun kerakli bo'lgan kuchni ham, vaqtni ham to'g'ri belgilay oladi; u o'zi ishlov berayotgan materialning xossasi va sifatlarini aniq bilib olishga ham, tayyorlayotgan buyumining ayrim qismlarining o'lchami va ular o'rtasidagi nisbatni aniq belgilashga qodir. O'zimizda hasil qilayotgan fikrlarimizni, umumiy abrazilarni, umumiy qoidalarni tajribada har qanday sinabko'rish, har qanday jismoniy ishda bo'lgani kabi, buning uchun kerakli kuchni ongli ravishda qo'llay bilishni, bunda mavjud formalarning nisbatini topa bilishni hamda maskur ish uchun zarur bo'lgan vaqtdan foydalana bilishni talab etadi. Bu talablarni hammasi, har qanday ishning umumiy sharti sifatida, umumiy ta'limning ham, umumiy jismoniy ta'limning ham asosiy vazifasidir"\*.

Jismoniy tarbiya jarayonida "harakat qilish va o'zini boshqarish" ga o'rgatishni, Lesgaft fikricha, bolalikdan – maktabda o'qish davridan boshlash kerak. Harakat amallariga o'rgatish jarayonida har bir bolani o'z gavdasini tuta bilish va boshqarishga o'rgatish, uni umumiy usullarini o'zlashtirib olish yordamida har qanday ishga tayyorlash zarur. Buning uchun shug'ullanuvchilar o'z gavdalarini harakatlantiruvchi a'zolari elementi bilan muntazam ravishda tanishib borishlari, davomiyligi va kuchlanish darajasi turli hil bo'lgan ishlarni qila bilishlari, vaqtga qarab o'z ishlarini o'ngli ravishda taqsimlay bilishlari hamda makoniy nisbatlarni aniqlay olishlari lozim.

Jismoniy tarbiya jarayonida bolalarning mustaqilligini rivojlantirish va xatti harakatlaridagi o'zboshimchaliklarni cheklash bilan ularni o'zini boshqara olishga shunchalik o'rgatish kerakki, natijada u "eng kam kuch sarflab, iloji boricha qisqa vaqt ichida eng ko'p ish qila bilsin"\*.

O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimida, ayniqsa sport mashg'ulotlarida o'quv mehnatining mehnat tarbiyasi sifatidagi ahamiyati beqiyos oshib bormoqda. Doimo olg'a qarab intilish, ya'ni sport sohasida doimo qiyinlashib boradigan mo'ljalga intilish, past sport razryadidan yuqori

sport razryadiga chiqib borishga erishmoq uchun, sportchining ish qobiliyati, yuksak darajadiligini ko'rsatadigan, hajmi va intensivligi jihatidan kattagina nagruzkalarga bardosh berish zarur.

Biroq mehnatsevarlikni tarbiyalashga sport bilan shug'ullanishning ijobiy ta'sir etishi qanchalik bo'lmasin, shug'ullanuvchilar mehnat tarbiyasining demokratik yo'nalishda bo'lishi o'z-o'zidan tarkib topmaydi. Jismoniy komolotni ishtimoiy ahamiyatini, o'zbek halqining demokratik jamiyat qurish uchun kurashishdagi ro'lini tushunish va sportchining bu kurashda aktiv qatnashishiga harakat qilishi bilangina o'quv mehnatida demokratik g'oyaviyligni ta'minlash mumkin. Bunga esa trener va jismoniy tarbiya kollektivining trenirovka va sport musobaqalari davomida pedagogik ta'sir ko'rsatishi, shuningdek sportchilarning ishtimoiy foydali ishlarda, unumli mehnatta ishtirok etishi, sport mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarda olib boriladigan siyosiy-g'oyaviy tarbiya vositasida erishiladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shaklidagi eng oddiy mehnat protseslarini mehnat tarbiyasining, ayniqsa bolalar mehnat tarbiyasining, dastlabki bosqichi deb hisoblash qabul qilingan.

Mashg'ulot o'tkaziladigan joyni tayyorlash yig'ishtirish va gigiyenik talablariga rioya qilish (zalni, sport jihozlarini artib tozalashavoni shamollatish va boshqalar) sport asbob anjomlarinio'rnatish va yig'ishtirishda kollektiv bo'lib qatnashish shug'ullanuvchilarning hayotiy mehnatning eng oddiy usullarini o'rganib olishlariga, birgalikdagi ishlarda mehnat intizomiga ongli ravishda rioya qilishlarini eng oddiy usullarini o'rganib olishadi.

Jismoniy tarbiya protsessi munosabati bilan bajariladigan ishtimoiy foydali ishlar. Bu sport maydonlarining obodonlashtirishga doir ishlardan hamda hamda sport asbob-uskunalarining remont qilishda, yangi jismoniy tarbiya sport inshootlari qurilishida ishtirok etishdan, shuningdek aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ishlaridan (sportchilarning namunali chiqishlari, ma'ruza, suhbat, jismoniy tarbiya jamoalarini tashkil etish, jamoatchi instruktorlar va boshqalardan) iboratdir.

Ishtimoiy foydali ishlarning tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. O'z mohiyatiga ko'ra bu jamiyat foydasiga tekin mehnat qilishdir, "umum foydasi uchun mehnat qilish zarurligini yahshi anglagan va bu anglash odat tusiga kirgan holda qilinadigan mehnatdir"\*.

Yoshlar ishtimoiy foydali ishlar jarayonida, faqat mehnat ko'nikma va malakalari hosil qilibgina qolmay, balki shu bilan birga, umum foydasi uchun qilinadigan ishlarni qadrlashga, topshirilgan ish uchun javobgarlik sezishga hamda bir birlariga doimo yordam ko'rsatishga o'rganadilar.

Sportchilarning har qanday ishtimoiy foydali ishlarni ongli ravishda, uning ishtimoiy ahamiyatini tushungan holda, vijdonan bajarishlari ularda mehnatga ijobiy munosabat tarkib topishiga yordam beradi.

Unumli mehnat: Yuqorida qayt qilinganidek, sportchilar moddiy va madaniy boyliklarni yaratuvchi unumli mehnatta qatnashmasalar, ularda mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash mumkin emas. Unumli mehnat ta'lim berish bilan qo'shib olib borilganda, jismoniy, ahloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasining yagona protsessida hal qiluvchi faktorga aylanadi.

Yoshlar sport lagerlarida, o'quv chorlarida, ko'p kunlik turistik paxotlarda bo'lgan vaqtlarida, qishloq ho'jalik ishlarida, sanoatda va ho'jalik qurilishida, aktiv qatnashish imkoniga ega bo'ladi. Bularndan tashqari yuqori malakali sportchilar murabbiylik ishlarini olib boradilar, o'zlarini boy sport tajribalarini yangi o'rganuvchi sportchilarga o'rgatadilar. Jamiyat uchun moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi mehnat ijodiy karakterda bo'ladi. Shuning uchun ham sportchilar erishilgan natijalardan g'oyat hursand bo'ladi, ularda o'z ishlaridan mamnunlanish hissi paydo bo'ladi.

Jismoniy tarbiya protsessida va u bilan bo'liq holda amalga oshiriladigan mehnatning yuqoridagi hamma turlari mehnat tarbiyasining mazmunini tashkil etadi.

**Mehnat tarbiyasining vazifalari:** Mehnat tarbiyasining mazmuniga muvofiq uning uchta asosiy vazifasini ko'rsatish mumkin.

1. *Mehnat ko'nikma va malakalarini egallash.*
2. *Mehnatsevarlikni tarbiyalash.*
3. *Mehnatga demokratik munosabatni tarkib toptirish*

Mehnat tarbiyasining vazifalari barchasi birgalikda shug'ullanuvchilar tarkibi va tarbiya sharoitlarini hisobga olgan holda hal etiladi.

**Mehnat tarbiyasining vositalari:** Mehnat qilish malakasi, mehnatga muhabbat, mehnat protseslarida tarkib topadi. Shuning uchun oldin ko'rsatib o'tilgan mehnat turlarining hammasi mehnat tarbiyasining vositalaridir. Ularning har biri shug'ullanuvchilarning kuchi etadigan va shu bilan ularning yoshi, jismoniy tayyor ekanligi hamda ong darajasiga mos holda murakkab bo'lishi kerak.

**Mehnat tarbiyasining metodlari:** Mehnat sportchilarning ehtiyojiga, ular odatlangan mashg'ulotga aylanishi uchun sistemali ravishda mehnat qilishga ko'nikib boorish, doimiy mehnat trenirovkasi zarur. Mehnat tarbiyasining asosiy metodi mehnat qilishga amaliy o'rgatishdir.

Mehnat psixologik protses sifatida kishini ongli, maqsadga qaratilgan faoliyatlari kategoriyasiga kiradi. Psixologlar mehnat protsessi sxemasida quyidagi bosqichlarni ko'rsatadilar:

1. *Mehnat vazifasini qo'yilishi.*
2. *Qo'yilgan vazifani bajarish usullari va vositalarini tanlash.*
3. *Mehnat vazifasini hal etish.*

4. *Natijani tekshirish, amaliy baho berish, bajarilgan ishga tuzatish kiritish va uni to'ldirish.*

Mehnat yoshidagi bolalarni mehnat tarbiyasi tajribalari mehnatni juda yahshi o'ylab tashkil etish va shug'ullanuvchilarning vazifalarini aniq taqsimlash, ish natijalarini hisobga olish lozimligini ko'rsatadi. Avvalo mehnatdan ko'zda rutilgan maqsadni mehnatning ishtimoiy ahamiyatiga alohida etibor berib, aniq tushuntirish lozim. Mehnat vazifalari konkret bo'lishi zarur (nimani bajarish, qanday bajarish va qancha bajarish). Kollektiv va individual topshiriqlar aniq belgilanishi kerak. Mehnat qurollari va mehnatning o'zi shug'ullanuvchilarning yoshiga hamda jismoniy tayyorlik darajalariga mos bo'lishi lozim. Mehnat natijalarini o'z vaqtida va obektiv sur'atda baholash juda muhimdir. Mehnatga amaliy o'rgatish bilan bir qatorda mehnat haqida jonli, aniq va ifodali qilib so'zlab berish, individual va kollektiv ravishda suhbat o'tkazish, mehnat muvofaqiyatlarini ob'yektiv suratda baholash shaklidagi so'z orqali ta'sir etishdan ham foydalanish kerak.

O'rnak bo'ladigan mehnat namunasining, ayniqsa xalqimiz kishilarining, shu jumladan sportchilarning ham, mehnat talabalarining tarbiyaviy ta'sir kuchi nihoyatda kattadir.

Mehnat tarbiyasi tajribasi shundan dalolat beradiki, biron bir ishni bajarishda kishining aql -idroki, his-tuyg'usi va irodasi qatnashgan bo'lsagina, kishi o'z mehnatidan mamnunlanadi. Bu esa o'qituvchiga, mehnat tarbiyasining ko'rsatib o'tilgan metodlaridan tashqari, zaruratga ko'ra jismoniy, ahloqiy, aqliy va estetik tarbiyaga xos boshqa metodlardan ham foydalanish imkonini beradi.

## II BOB. JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA AHLOQIY, ESTETIK, AQLIY VA MEHNATGA OID TARBIYANI AMALGA OSHISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI

### 2.1. O'z-o'zini tarbiyalash tarbiyaning asosiy metodi

Jisminiy tarbiyani va ayniqsa, sport bilan shug'ullanishni, o'z-o'zini tarbiyalashsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash sportchiga qanday yordam berishiga, otish – ovchilik sport bo'yicha jahon jempioni va rekortchisi N.D. Duriyevning shahsiy tajribasi misol bo'la oladi.

“O'z sport faoliyatimda,- deydiu, -o'z -o'zimni tarbiyalashga kata ahamiyat beraman.. Bunda eng asosiy narsa, o'z hatolarimni anglab ola bilish, ularni sabablarini tahlil qila bilish, to'g'ri xulosalar chiqarish hamda qisqa vaqt ichida tayyorgarlikdagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iboratdir”.

Otishda diqqatni tez uchib borayotgan nishonga to'plashda alohida malaka va ayni vaqtda qo'llar bilan miltiqni “siltab yubormaslik ” uchun muskullarni bo'shashtirish kerak bo'ladi. Mana shu bir biriga zid ikki narsa ustida jiddiy ishlash talab etiladi. Bulardan tashqari, omma tasiriga, sport kurashidagi kutilmagan o'zgarishlarga hamda otish natijalariga berilmaslik uchun g'oyat kuchli iroda kerak bo'ladi. Trenirovka vaqtlarida tashqi tasirlarga berilnaslikka o'zimni ishontirish va o'zimga-o'zim buyruq berish yo'li bilan men diqqat etiborimni faqat otishga qaratishga erishdim. So'ngra trenirovkani murakkablashtirdim., o'z o'quvchilarimdan diqqatimni otishdan boshqa narsaga tortishlarini iltimos qildim.; ular sakrashar, kulishar, bir-birlari bilan gaplashar edilar. Keyinchalik trenirovkalarda portative priyomnikdan foydalandim, muzika tinglab, otishni davom ettiraverdim. Hozir men hae qanday sharoitlarda ham ota olaman.

N.D. Duriyev o'z-o'zini tarbiyalash ma'suliyatli musobaqalarda muvofaqiyatli kurash olib borishga va g'alaba qilishiga bir necha bor yordam berganligini qayt etadi. U quyidagicha faktini keltiradi:

\*Qohirada (1962 yil) o'tkaziladigan jahon birinchiligiga tayyorlanayotib, ahloqiy-irodaviy tayyorgarlikka alohida ahamiyat berdim. Qohirada juda issiq bo'lishini bilgan holda, men o'zimni suv ichish rejimi bilan bo'g'liq bbo'g'liq bo'lgan qiyinchiliklarni engishga tayyorlay boshladim. Men ovga chiqib, lijada 30-40 km yo'l bosib bunda kun bo'yi suv ichmaslikka harakat qilar edim. Shunday qilib organizmni juda kam suv ichishga o'rgatdim. Qohirada +50 tempireturada otishga to'g'ri keldi. Issiq va suvni ortiqcha istemol qilish ko'p sportchilarni safdan chiqardi. Men esa

ozimni juda yahshi his qildim. Natijada shu musobaqada 200 ta nishonning hammasini urib tushirdim va natijada jahon jempioni bo'ldim.

Sportchining o'z-o'zini tarbiyalashga intilishi uning e'tiqodi, irodasi, harakterning yetugligigan dalolat beradi.

Sportchining o'z-o'zini tarbiyalashi qator talablarni bajarishdan iborat.

Avvalo sportchi o'zini bilishi, o'zini yahshi va yomon tomonlarini ko'ra bilishi, o'z hatti harakatlaritanqidiy baholay olishi kerak. Bundan tashqari, boshqa kishilar (o'qituvchi, trener, do'st va o'rtoqlar) ning fikrini ham e'tiborga ola bilishi lozim.

O'z hatti-harakatlari, ishlari va hulq atvorini tahlil qila bilish muhim ahamiyatga ega. Bunga, jumladan kundalik daftar tutishko'p chihatdan yordam beradi. Kundalikda sportchi o'zini hayotga, spoer mashg'ulotlariga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi. Kundalikda o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha mahsus ishlab chiqarilgan ish programmasi va qoidalar ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin.

Kun tartibiga va shahsiy mashg'ulot rejimiga qat'iy rioya qilish, ixtiyoroy diqqat va irodaviy fazilatlarini rivojlantiradigan maxsus mashqlar o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradi. Tarbiyaning umumiy metodlari o'z-o'zini tarbiyalashda o'z-o'zini kuzatish, ishotirish, o'rgatish va boshqa hususiyatlarni hosil qiladi. Masalan, so'z bilan bog'liq bo'lgan turli maxsus usullar – so'z orqali o'zini ishontirish "qo'rqma" "o'zingni safarbar qilishing kerak" "kurashni davom ettiraver" va hakazo o'z-o'ziga buyruq berish komanda yig'ilishida o'rtoqlarcha suhbatda o'z zimmasiga majburiyat olish orqali o'ziga dalda berishkabi usullar qo'llanishi mumkun. Shuningdek, uchrashi mumkun bo'lganqiyinchiliklardan alahsitish, yoqimli kechimalarni eslash, mustahkam irodali eng yahshi sportchilarning harakatlariga va yurish turishlariga, taqlid qilish va boshqalardan ham foydalaniladi.

O'z-o'zini tarbiyalashda, asosiy narsa qaror qabul qilib, uni, albbatta, bajarishdir. O'z ustida g'alaba qilish o'ziga, o'z imkoniyatlariga bo'lganishonchni mustahkamlaydi, busiz o'z irodasini tarbiyalash mumkun emas.

O'z-o'zini tarbiyalash usullarini bilash, va sport turi yokiboshqa mashg'ulot spetsifikasiga mos ravishda ulardan foydalanish hamda shug'ullanuvchilarning individual hususiyatlari, madaniyati, hayot tajribasi va boshqa shart sharoidlarga mos ravishda ulardan foydalanish oldiga qo'yilgan maqsadga bekam-ko'st erishishga imkon beradi. O'z ustidan g'alaba qozonishdayoq botirona va qiyin ishda o'zining urinishlari samalarini real his qilgan kishiga o'z-o'zini tarbiyalash chuqur ma'naviy qanoat baxsh etadi.

## *2.2. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan interfaol metod va texnologiyalar mohiyati*

**"Bahs-munozara"** metodi ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahsi bo'lib, talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

### **Ma'ruzada talabalarga beriladigan topshiriq:**

Quyidagi mavzularning birini tanlang va mavzu yuzasidan munozara tashkil eting:

1. Mehnat tarbiyasi va ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlari o'rtasidagi aloqadorlik haqida so'zlab bering.
2. Estetik didga egalik – o'quvchilarni ahloqsizlik va huquqbuzarlikdan himoyalash omili.
3. Jismoniy komillik – kuch ifodasimi yoki ongli faoliyat natijasi?

### **O'quvchilarning mehnat jismoniy va estetik tarbiyasi**

Reja:

1. Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari mazmuni, shakl va metodlari.
2. Estetik tarbiyaning mazmuni vositalari va estetik didni shakllantirish
3. Jismoniy tarbiya mazmuni.

**Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.** Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O'zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifati bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

- o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.



Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviy-ahloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

1. Aqliy tarbiya o'quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

2. Mehnat tarbiyasi ahloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi ahloqiy xislatlar ham shakllanadi.

3. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o'quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

4. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» rivasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: «Milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyatiga ko'ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi.... Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligidir, g'oyasini ilgari suradi»<sup>1</sup>, - deb ta'kidlanishi ham bejiz ems.

Yuqoridagilarga asoslanib, o'quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;

- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;

- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;

- o'quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;

- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;

- ularning mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga erishish;

- mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;

- o'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;

- mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;

- o'quvchilarning mehnatni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o'quvchilarni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

**Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.** Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari va xo'jaliklarning dalalarda olib boriladi.

Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlarini shakllanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta'limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, Umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning to'g'arklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;

- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohida bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);

- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy-buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

To'garak faoliyati jarayonida o'quvchilar o'z kollejlari uchun o'quv-ko'rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda – stendlar, harakatdagi modellarni yaratish mumkin.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o'z-o'ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro'zg'or texnikalarini ta'mirlash bilan shug'ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog'liq topshiriqlarni bajaradilar, Oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

**Estetik tarbiyaning mazmuni.** Estetik tarbiya "badiiy tarbiya" sifatida ham qo'llaniladi. Estetik tarbiya keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlari, tabiat vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo'shiq, tasviriy va san'atning boshqa yo'nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiya (lotincha "estezio" "go'zallikni his qilaman") o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, go'zallikka muhabbat uyg'otish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

### *2.3. Sportchilarni ahloqiy tarbiyasining bugungi kundagi ko'rinishlari mavzusi bo'yicha muammoli vaziyat*

#### *MUAMMOLI VAZIYAT*

Toshkent shahridagi joylashgan tungi klublarning birida mudhish voqea sodir bo'lganligi haqida ijtimoiy tarmoqlarda ayanchli videorolik tarqaldi. Voqeadada bir inson ayanchli holatda qattiq kaltaklanilyapdi va tanasining 10 dan ortiq joyiga pichoq urib o'ldirilyapdi. Keyinroq xabarda aytilishicha tungi klubga soat kechasi 12:<sup>30</sup>lar chamasida kelgan mijozni

tungi klub qo'riqchilari tomonidan ichkariga kirishiga qarshilik ko'rsatilib yakuni ayanchli holatda tugaganligi, halok bo'lgan shaxs esa erkin kurash bo'yicha bir necha xalqaro musobaqalar g'olibi, jahon chempioni, mashhur sportchi bo'lib chiqdi.

Ushbu vaziyatdagi holatlarni izohlab bering.

**Muammoning maqsadi** – ayrim sportchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan ahloqiy tarbiya masalasidagi muommalarning kelib chiqish sabablari va bularni oldini olish uchun qilinishi kerak bo'lgan asosiy masalalarga aniqlik kiritish

### KEYSNI BAJARISH BOSQICHLARI

1. Ushbu holatning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan asosiy sabablarni kiriting.

2. Ushbu vaziyatda sportchi va tungi klub qo'riqchilari qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri xarakatlarni bajarganligini izohlab bering.

3. Ushbu vaziyatda bunday muammoni kelib chiqmasligi uchun yo'nalishlarini izohlab bering.

### USHBU VAZIYATDA SPORTCHI TAQDIRINING BUNDAY AYANCHLI VAZIYATDA TUGASHINING SABABLARI, TARBIYANING QAYSI TURLARI YETARLI DARAJADA SHAKLLANTIRILMAGANLINI IZOHLAB BERING.

1. Yuqori malakali sportchi bo'lsa, unda tungi klublarga borishi sababi.

2. Tarbiyaning boshqa turlarini jumladan ahloqiy tarbiyaning avvalo oilada, maktabgacha ta'lim muassasida, umumiy o'rta ta'lim maktabida qolaversa murabbiylar tomonidan mashg'ulotlar jarayonida bosqichma-bosqich berib borilishi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi.

3. Tungi klub qo'riqchilarida xam insonga nisbatan bunday munosatda bo'lishida ahloqiy tarbiyaning etishmasligi qo'riqchilarning inson qiyofasidagi holatdan chiqish.

**Muammoni yechimi bo'yicha tavsiyalar:**

1. Yosh sportchilarga ahloqiy tarbiya bo'yicha talablar ishlab chiqilishi.
2. Kamil inson haqida tushuncha berish va unga qo'yiladigan asosiy talablarni yoshlar ongiga singdirib borish.
3. Yuqori malakali sportchining kun tartibi qanday bo'lishi kerakligini murabbiylar tomonidan tushintirishlar va qat'iy talablar qo'yilishi.
4. Yuqori malakali sportchilar erishgan natijalarini targ'ib qilish, bosib o'tgan yo'llarni o'rganish odob-ahloq jihatdan andoza sifatida targ'ib qilish.
5. Murabbiylar tomonidan raqibga hurmat estetikasini ham o'rgatish.

**2.4. Jismoniy tarbiya jarayonida har tomonlama tarbiyalash tamoyillari.**

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi odamning ahloqiy mazmuni, uning ongi, xulqi va hissiyotlarining birligida namoyon bo'lishini ifodalaydi. *Jismoniy madaniyat pedagogikasi – bu kategoriyalarda qarama-qarshilik, uzilish bo'lsa, jismoniy tarbiya jarayonini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotishlarga olib kelishi mumkinligi faktlariga asoslanadi.* Jismoniy madaniyat pedagogikasining mohiyati umumiy pedagogikaning mazmuni sifatida – ahloqiy xulq, ong va hissiyotlarni hamohang rivojlantirish hisoblanadi.

O'quv faoliyati davrida ma'naviy tarbiyaning asosiy manbaalaridan biri uning mazmuni hisoblanadi. Shu naqta – nazardan maktab jismoniy tarbiya tizimida o'quv-harakat faoliyati tizimi mazmuni intellektual, bilish, hissiyot va ahloq komponentlarini o'z ichiga olgan holda o'quvchilar ahloqiy xulqini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Ma'lumki, mavjud jamiyatda yashaydigan har bir shaxs har tomonlama rivojlangan bo'lishi lozim, chunki, kishilar ruhiy, ma'naviy va jismoniy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda tug'ilmaydilar.

Bu sifatlarni kamol topishi, o'sha ijtimoiy sharoitga va mavjud tarbiya tizimiga bog'liq. Ijtimoiy muhit har tomonlama garmonik rivojlanishni, har doim va har erda inson organlari va sistemalarining biologik rivojlanishini ichki talab tarzida qo'yadi.

Shaxsning asosiy ahloqiy ko'rinishlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayonning tuzilishi, tarbiyaviy tamoyillarni ijodiy qo'llashga asoslanadi. Hozirgi kunda mavjud tarbiyaviy tamoyillar tizimini shartli

ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi asosini ifodalovchi g'oyaviy – siyosiy tamoyillar – *milliy istiqlol g'oyasi tamoyillari, maqsadga yo'naltirilganlik, tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi tamoyillari*, ikkinchi guruh tamoyillari bevosita tarbiyalanuvchilarning, shaxsiga qaratilgan: *jamoada tarbiyalash tamoyili, etarli darajada shaxsni hurmat qilish tamoyili, tarbiyaning ijobiylikka tayanganlik tamoyili va individual yondashish tamoyili*.

Birinchi guruhdagi tamoyillarni hal qilishda, o'qituvchi o'zining g'ayratini, o'quvchilar jismoniy tarbiyasi barcha shakllarini g'oyaviy-ma'naviy qadriyatlar bilan ta'minlashga yo'naltirishi kerak. Bu tamoyillar tarbiyaviy tamoyillarning strategiyasini tashkil qiladi. Natijada bunday ta'sirlar O'zbekistonning ma'naviy qadriyatlariga e'tiqodni va shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga olib kelishi kerak. Jismoniy tarbiya darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liqligini ta'minlash zarur. Faol hayotiy pozitsiya O'zbekiston qurolli kuchlari safida xizmat qilish hamda vatanni himoya qilishga tayyorligini tabiyalashdan iborat.

Sinfdan tashqari ishlarda suhbatlar o'tkazish, O'zbekiston sportchilarining yuqori fuqarolik ahloqiy xulqlari va maktab sportchilari to'g'risida hikoyalar aytib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu guruh tarbiyaviy tamoyillarining hal qilinishi maktab hayotining barcha sohalarida o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga keng doirada jalb qilish bilan amalga (maktab sport maydonchalarini qurish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazish, sport jihozlarini ta'mirlash va boshqalar) oshirilishi kerak. O'qituvchining bunday ishi natijasida o'quvchilarda vijdon burchi va atrofdagi ijtimoiy voqeliklar xuddi o'ziniki kabi idrok qilinishini shakllantiradi. SHuni esda tutmoq zarurki, o'qituvchi tanlab olgan ishning ijtimoiy mohiyati qancha yuqori bo'lsa, o'quvchilarda ma'suliyatlilik va ahloqiy burch darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Ikkinchi guruh tamoyillari birinchi guruh tamoyillari bilan hamohang bog'liq bo'lib, o'qituvchiga tarbiya jarayonini tuzishda aniq yo'llarni ko'rsatuvchi bilimlar bilan qurollantiradi. Aslida bu tamoyillarning hammasi tarbiyalanuvchining shaxsiga qaratilgan bo'lib, pedagogikaning insonparvarligi ruhida yoritilgan

*Shaxsni jamoada tarbiyalash* – tarbiyaning etakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya pedagogikasi o'qituvchiga ularni hal qilish yo'llarini tanlashda keng imkoniyatlar yaratadi. O'quvchilar jismoniy tarbiyasining barcha shakllari, ularning mazmuni shaxsning jamoatchilik sifatlarini shakllantirishda ulkan imkoniyatlarga ega. Turli xil musobaqalarni tashkil qilish, darslarda o'yinlar va estafetalarni qo'llash, jismoniy tarbiya

pedagogikasining bu muhim tamoyili amalda muvaffaqiyatli tadbir qilinishi mumkin. Faqat o'zaro ma'suliyatlilik va o'zaro bog'liqlik vaziyatlarini hosil qilish zarur. Bunga har xil usullar bilan erishiladi.

Birinchi vaziyatda bu jismoniy madaniyat bo'yicha sinf faollarining jamoa oldidagi ma'suliyati. Boshqa vaziyatda – jamoaning bitta-ikkita a'zosining butun jamoa oldidagi ma'suliyati. Uchinchi vaziyatda – jamoa barcha a'zolarining uning vakillari oldidagi ma'suliyati. O'qituvchining tashvishida nafaqat, ish bajarish bo'yicha o'zaro munosabatlarni shakllantirish (“Sen majbursan”), (“Biz senga yuklaymiz”), (“Sizlar mana bu uchun javobgarsizlar”), ya'ni tashkilotchilik va ijrochilik munosabatlari, balki g'amxo'rlik, xushfe'llik, rahmdillik, o'zaro tushunish munosabatlari ham bo'lishi kerak. Faqat ana shu sharoitlardagina jamoaning ichidagi va shaxsiy munosabatlarning hamohangligi paydo bo'ladi.

Maktab o'quv tarbiyaviy ishi tizimining markazida va alohida pedagogik aksiyalarda o'quvchining shaxsi turadi. Aynan, shuning uchun ham, jismoniy tarbiya pedagogikasida o'qituvchidan talabchanlik bilan birgalikda *o'quvchi shaxsini hurmat qilish, ijobiylikka tayanganlik* tamoyillari aniq ifodalangan. Bu tamoyillarda shaxsning ma'naviy dunyosi, qiziqishlari dunyosi, uning individualligiga ziyon-zahmat etkazmaslik, mehribonlik talablari qo'yilgan. Bu tamoyillarga rioya qilgan holda o'qituvchi shunday uslub va muomala tarzi munosabatlarini topishi kerak-ki, u o'quvchining ichki kuchlarini susaytirmasligi, ranjitmasligi kerak, balki bu kuchlarni namoyish qilishga undashi lozim.

Bu vaqtda qilingan harakatlar ma'suliyatlilikni, o'z qadrini bilishni ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash juda muhimdir. Arzimagan narsalar uchun asossiz ayblayverishlik, siltab tashlashlik, odobsiz muomalalik kabi tanbehlarini berish mutlaqo mumkin emas (qizlarning pala-partish kiyimi uchun sinf jamoasi oldida tanbeh berish, yoki qo'rqqoqlikda kamsitish va boshqalar). O'quvchida *ijobiylikni loyihalashtirish* zarur, mayli, hattoki, ma'lum darajada xatoga yo'l qo'yilsa ham. O'quvchi o'ziga aniq ishonmaydi. O'tgan musobaqalarda u yaxshi ishtirok eta olmadi, jamoaga pand berdi. Ammo o'qituvchi uni yana jamoa tarkibiga qo'yadi, o'qituvchi unga ishonadi va o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'otadi, uni hosil qiladi, ma'suliyat hissini rag'batlantiradi.

O'quvchilarning yosh xususiyatlari o'ziga xosligi uchun rivojlanayotgan shaxsga to'g'ri ta'sir ko'rsatishda ularning usullarini va vositalarini to'g'ri tanlashni talab qiladi. *Individual yondashish tamoyilini* hal qilish pedagogik ta'sirning o'quvchi imkoniyatlariga, kuchiga va hayotiy tajribasiga mos bo'lishligini nazarda tutadi. Shunday ekan yoshning jismoniy, hayajon-irodalik, intellektual rivojlanish xususiyatlarini hisobga

olish zarur. Bolalar, ayniqsa o'smirlar juda tez voyaga etadilar. O'qituvchi uchun har xil turdagi vazifalar, topshiriqlar maksimal ma'suliyatni talab qiluvchi ma'naviy g'ayrat va maqsadga erishish uchun butun irodani ishga solishda bo'lishi mumkin bo'lgan murakkablashish fursatlarini e'tiborsiz qoldirmasligi juda ham muhimdir. SHuni esda saqlash kerakki, bir xil yosh doirasida har bir shaxs o'zining ichki dunyosida takrorlanmasdir. Bu shaxsiy havaslar, ishtiyoqlar, talablar, fikrlar, intilishlar dunyosidir. Aynan, shuning uchun ham, tarbiyaviy jarayon o'quvchilarning individual xususiyatlariga tayanmog'i darkor. Shu bilan bir qatorda mavjud individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, yangi, ancha qadrli havaslarni va ehtiyojlarni paydo qilish imkoniyatlarini hosil qilish zarur.



### III BOB. O'QUVCHILARDA MA'NAVIY – AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI YOLLARI VA USULLARI

#### *3.1. O'quvchilarda ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalash hozirgi davrning muhim muammosi*

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik<sup>1</sup>.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Ma'lumki «ma'naviyat», «ma'rifat» tushunchalari bilan filosoflar, psixologlar, filologlar, pedagoglar qiziqib, ularga o'z fanlari nuqtai-nazaridan yondashib ta'riflar berdilar. Keling shular mazmunini, falsafiy-pedagogik asoslarni ko'rib chiqaylik. «Ma'naviyat insonning xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi», - deb yozadi Respublika Prezidenti o'zining 1992 yilda yozgan «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» kitobida. Xo'sh, ma'naviyat nima ekanki u insonning, xalqning, jamiyat va davlatning, kuch - kudrati ekan? Xo'sh, ma'naviyat nima ekanki, u yo'q joyda baxt - saodat, xuzur -xalovat, yo'q ekan. Keling ushbu jumboklarga filosof va pedagoglarning ta'rif bilan javob berishga xarakter qilamiz.

«Ma'naviyat - inson qalbida ko'ngil ko'zgisida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta'rif darhaqiqat so'fiyona ramziy ta'rifdir, zotan boshqacha ta'rif bu cheksiz moxiyatni cheklab qo'yadi»- deb yozadi T.Maxmudov «Ma'naviyat- insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir», deb ta'riflaydi. Bu ta'riflarda ma'naviyat «inson qalbining haqiqiy nuri», «insonning ma'lum darajadagi jismoniy, ruhiy, aqliy balog'ati va dunyoqarashini» ifodalovchi tushuncha nuqtai - nazaridan baholanmoqda. Demak, inson barkamol bo'lishi uchun

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992, 65-bet.

o'zida ushbu xususiyatlarni tarkib ettirmog'i, xayoliga qalbi, ko'ngil ko'zgusidagi xaqiqat bilan qaramog'i lozim. Bu uchun inson o'zini ham ruhan, xam aqlan, ham jismonan tayyorlab tabiat, jamiyat inson taraqqiyotida mazkur nurlar orqali qaramog'i lozim.

Shunday qilib, ma'naviyat insonning ruhiy, jismoniy, aqliy balog'at yoshi ekan bu yoshda inson hayotga bolalik ko'zi bilan emas o'smirlar ko'zi, balog'at yoshi ko'zi bilan qaraydi. Oqibat natijada qalban ulg'ayadi, ruhlari tetiklashadi oqni - qoradan, yaxshini - yomondan ajrata olishga xarakat qiladi, irodasini iymon-e'tiqodini, zaxiriy va botiniy kuchlarini mustahkamlaydi. SHuning uchun A. Erkaev ta'kidlaganidek «Ma'naviyat - insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr - muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or - nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik, kasb etgan majmuidir». Demak ma'naviy insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi zot belgisi. Insonda ma'naviyat bo'lsa u tabiatdagi boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Yoki boshqacha aytganda insondagi mexr - muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdilligi, yovuzlikka nafrat ko'zi bilan qarashi, irodaliligi, matonati uning ma'naviyatligidan darak beradi.

Ma'naviyat to'g'risida akademik E. YUshupov, S. Otamurodov, A. Jalolov, O. Nosirxo'jaev, M. Lafasov, M. Zaripov Xoji Ismatulloh Abdullohlar va boshqalarning ta'riflari keltirilgan. Barchasida ma'naviyat, aql, idrok ruhi kechinma, ichki kayfiyat kabi ma'nolarni anglatadi, shuning uchun xam u shaxs barkamolligi uchun zarurdir. Demak, insonlarda ayniqsa yoshlarda axloq, ilm, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, e'tiqod, burch, ma'suliyat hissini hosil qilib ularni tekinox'rlik, hasadgo'ylik, johillik, g'iybat qilishlik, o'z vatani, o'z xalqi, o'z ota - onasiga sotqinlik, tuhmat qilish kabi xislatlarga murosasizlikni shakllantirish bugungi kun talabi ma'naviyatning asosi ekan uni o'rgatish lozim. Zero, ma'rifat - bilish, bilim, tanish va ma'lumot kabi ma'nolarni anglatuvchi tushunchadir. SHuning uchun xam ma'naviyat ma'rifat bilan uyg'un holatda, hamkorlikda, bir - birini o'zaro to'ldirib, rivojlanib boradi. «Ma'rifat, - deb yozadi akademik E. YUshupov kishilarning ongiga muayyan bilimlar g'oyalari, e'tiqod va iymon, axloq va odob normalarini singdirish, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarini o'rganish, targ'ib etish maksadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimidir».

Demak, ma'rifat yosh avlodga axloqiy fazilatlarini singdirish maqsadida milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarini o'rgatish, to'g'riroq aytadigan bo'lsak shaxsning mentalitetini shakllantirish jarayonidir.

«Ma'rifat» - arabcha «arafa» - «bilmoq» fe'lidan olingan bo'lib bilish, bilim, anglash, tanish ma'nolarini anglatadi. YA'ni ma'rifat «ta'lim-tarbiya, iktisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida, kishilarning ong bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat». Ma'rifat orqali tabiat, jamiyat, tafakkur, taraqqiyot qonunlari anglanadi, tabiatda, jamiyatda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealarning mohiyat mazmuni tushuniladi. Ma'rifat yordamida axloqiy sifat va kamolotga erishiladi.

Mustaqillik tushunchasi "ma'naviyat": madaniyat tushunchalari bilan uzviy bog'langan bo'lib inson kamoloti, davlat taraqqiyotining suyanchig'idir. Ham dunyoviy ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular inson, jamiyat kamolotining hal qiluvchi omili bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. SHuning uchun jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotiga ijobiy ta'sir etadigan g'oyalarni yaratish, targ'ib qilishga intilganlar. Bunday insonlarni ma'rifatparvarlar deb ataganlar.

Oliy o'quv yurtlarida rahbar va talabalar o'rtasida ma'naviy nomutanosiblik bo'lmasligi kerak. Bunday holatlar noxush oqibatlariga sabab bo'ladi.


Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi. (1,2,3,4 - ilovalar)

Jamiyat ma'naviyati uch muhim soha yo'nalishida amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllantiriladi:



1- chizma. Jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi omillar

**Madaniyat** («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

**Ma'rifat** shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

**Mafkura** (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklash, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi.

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir.... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega,

ajdodlarimizning 'bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat'<sup>1</sup>.

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanning sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi.

«Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezonini bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongingning jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon shayot pirovard ma'sadimiz. – Toshkent, Izbekiston, 2000. – 19-20-betlar.

tizimligi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi.

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman haloq bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo'nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqta nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi.

Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarini tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o'z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

- shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;

- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy sifatlar – boshqlarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtataolish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Arzimas bo'lib ko'ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatga ega bo'lish yo'lida zaruri bo'lgan bu kabi odatlardan holi bo'lishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish o'qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Bunday sifatlarni tarbiyalashni maktab partasi ortidanoq boshlash muhim ahamiyatga ega.

### *3.2. O'quvchilarining ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganlik darajasining tahlili.*

Ma'naviy axloqiy tarbiya maqsadni aniq belgilagan holda tizim asosida amalga oshiriladi. Ma'naviy axloqiy tarbiya o'quvchilar bilan olib boriladigan har bir ish turining mazmuniga kiradi.

Hozirgi hayotimiz tobora o'z-o'zimizni anglab borayotganligimiz, umuminsoniy- ma'naviy qadriyatlariga e'tibor kuchaytirilayotganligi bilan izohlanadi. Mavjud ta'lim jarayonini har tomonlama takomillashtir-masdan turib bu jarayonlarni ijobiy hal etib bo'lmaydi.

Chunki ma'naviyat-timizda sodir bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish ko'p jixatdan ta'lim tizimining maqsadga muvofiq tarzda bo'lishiga bevosita bog'liqdir. Yoshlar tafakkurini o'stirish, berilayotgan axborotni qabul qilgan zahotiyoyoq uni qayta ishlab chiqib, tegishli xulosalar chiqarish bilan bog'liq holatlarga erishish hamda zarur ko'nikmalarni shakllantirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi.



Maktabda ta'lim-tarbiya ishining samarali bo'lishi asosan dars mashg'ulotlarining turli, mazmunli va izchil tashkil qilinishiga bog'liq, albatta.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi mustaqil siyosati umumiy ta'lim maktablarida yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyasini yangi davr talablari asosida yo'lga qo'yishini taqozo etmoqda. Ma'naviy – axloqiy tarbiyaning maqsadi, mazmuni jamiyat talablari asosida o'zgarib boradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchi-tarbiyaviy ta'sir o'tkazadigan obyekt bo'lib qolmasdan pedagog bilan o'z maqsadi yo'lida faol hamkorlik qiluvchi subyektdir.

O'quvchi shaxsi faoliyatda, tabiyatga, jamiyatga, odamlarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida shakllanadi. Muhimiki, ana shu jarayonlarda shakllangan yaxshi sifatlar o'quvchining kelajak faoliyatlari, munosabatlari uchun juda zarurdir. Har bir bola tabiat va jamiyatning ma'lum rivojlanish bosqichlarida tug'ilgan ekan, u shu jamiyatda shakllangan ma'naviy muhitda voyaga yetadi. Unda o'zi tug'ilgan bosqichdagi hayot taqozo etayotgan faoliyat va munosabatlarga asta-sekin kirishib ketishi uchun ruhiy, ma'naviy va jismoniy imkoniyatlar mavjuddir.

O'zbek oilasi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Eng yuksak insoniy his-tuyg'ular, ezgu-niyatlar, betakror ma'naviyat, iqtidor, aql zakovat, salohiyat ham oila bag'rida tarkib topadi. Oilada bola xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Maktabda esa bu tarbiyani amalga oshirish uchun tizimli ish tashkil yetiladi.

Abdulla Avloniyning ta'lim - tarbiyaga oid asarlaridan biri bo'lgan 1913 yilda yozilgan «Turkiy guliston yoxud ahloq» kitobida bolalarda ilk yoshdan boshlab ahloq va odob tarbiyasini berish kerakligini ta'kidlanadi. Uningcha bolalarda ahloqiy me'yorlarning tarkib topishida muxit, sharoit va kishilar g'oyatda katta rol o'ynaydilar. «Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlashdurmak lozim ekan»<sup>2</sup>.

«Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlarga omil bo'lub, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chiqishturub o'rgatmaklari lozimdur...»

Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo'lib amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladi»<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> A. Avloniy. Turkiy gulistm yoxud axloq Toshkent «O'qituvchi», 1992. 13-bet.

<sup>3</sup> A. Avloniy. Turkiy gulistm yoxud axloq Toshkent «O'qituvchi», 1992. 16-bet.

Ma'lumki maqsadga muvofiq o'qish faoliyati maktab o'quvchilarining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvchanligi, esda saqlab qolish, esga tushirish imkoniyatlarini saqlab qolish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ularda tafakkurning faoliyati, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi., jamoatchilik oldida mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Maktab o'quvchilarida ma'naviy – axloqiy sifatlarni shakllantirishning hozirgi darajasini aniqlash maqsadida biz Qarshi shahridagi 4-sonli umumiy ta'lim maktabi o'quvchilariga quyidagi anketa savollari bilan murojaat qildik. Anketa savollariga: Shahrimizdagi go'zal obidalarni bilasizmi? Odamlar bilan munosabat nimadan boshlanadi? Odob haqida qanday maqollarni bilasiz? Vatan haqida qanday she'rlarni bilasiz? Eng go'zal narsa nima, eng xunuk narsa nima? «Xo'p» deyish yaxshimi, «yo'q» deyish? Vatan deganda nimani tushunasiz? kabi savollar mavjud edi.

Jami 5-6 sinf o'quvchilaridan 26 nafari suhbatga qatnashdi.

Yuqoridagi savollar bolalarning ma'naviy – axloqiy tushunchalarini aniqlashga qaratilgani sababli atrof-muhit, ijtimoiy hayot, shaxslararo munosabat yuzasidan, Vatan tushunchasini izohlab berish kabi har tomonlama bilimni talab qilar edi. Bunda «yaxshi» va «yomon» tushunchalari «go'zal» va «xunuk» kabi axloqiy tushunchalar bilan uyg'unlashib ketgan. Beshinchi, oltinchi o'quvchilarining odob to'g'risidagi fikr va mulohazalari mazmuni, shakli va tuzilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko'lami kengroqligi. Yosh xususiyatlari va aql kamoloti darajasi yuqoriligi.

Shuningdek, bolalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasini tashkil etayotgan maktab o'qituvchilariga ham bir qancha savollar bilan murojaat qildik. Quyida anketa savollarini keltiramiz:

1. Ma'naviyat nima?
2. Ma'naviy – axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
3. O'kitish jarayonida ma'naviy axloqiy tarbiyani qanday amalga oshirayapsiz?
4. Qaysi darslar ma'naviy axloqiy tarbiyani tarbiyalashga ko'proq xizmat qiladi?
5. Kimlarning asarlaridan ko'proq foydalanayapsiz?
6. Tarbiya mavzusida yozilgan o'zbek allomalarining qaysilarining asarlaridan foydalanayapsiz?
7. Bolalarda qanday salbiy ta'sirlarni ko'rayapsiz?

8. Ma'naviy – axloqiy tarbiya sohasidagi o'z tajribalaringizni ayting.

9. Ma'naviy - axloqiy tarbiyani qaysi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin?

Anketa svol javoblarida 20 nafar o'qituvchi qatnashdi. Anketa natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pgina o'qituvchilar O'rta Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarni yaxshi bilmaydilar. Uni ta'lim - tarbiya jarayonida keng qo'llay olmaydilar.

Shuningdek, biz o'qituvchilarga "Ma'naviyat nima?", "O'qitish jarayonida ma'naviy – axloqiy tarbiyani qanday amalga oshirayapsiz?" kabi savollarga aniq javoblar ola olmadik. Shuningdek, o'quvchilarda ma'naviy – axloqiy tarbiyani shakllanishida qaysi ta'sir kuchli? Oila, maktab va jamoatchilik ta'siri birinchi, ikkinchi va uchinchi o'ringa qo'yib ko'rsating deb iltimos qildik va quyilagi natijani oldik. Bu tadqiqotga 16 nafar o'qituvchini jalb qilidik. Natija quyidagicha bo'ldi:

**I-jadval**

O'rin	oila			maktab			Jamoatchilik		
	1	2	3	1	2	3	1	2	3
Javoblar soni	6	6	4	6	6	4	4	6	6

Ko'rinib tashdiki o'qituvchilar o'quvchilarga ma'naviy – axloqiy sifatlarni shakllantirishda maktab va oilaning roliga yuqori baho berganlar.

Darhaqiqat oila axloqining dastlabki ildizi oilada shakllanadi. Maktab esa bu sifatlarning yanada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada jamoatchilikning ta'siri ham maktab va oilanikidan kam emas. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'qituvchi bularni unutmasligi kerak. Shuningdek, anketa savollariga belgan javoblarda o'qituvchilar ma'naviy – axloqiy tarbiya sohasidagi tajri alarni to'laroq yoritishga qiynalganlar.

Bundan tashqari shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu sohadagi tajribalar ham yetarli darajada deb bo'lmaydi.

«Bolalarda qalay salbiy ta'sirlarni ko'rayapsiz?» degan savolga ko'pchilik (11 ta) o'qituvchilar bolalarning savdo sotiqqa berilib ketib, ta'lim – tarbiyasiga e'tibor ko'rayganini ko'rsatganlar. Lekin shu bilan bog'liq omillarni tahlil qilib bera olmaganlar. Shuningdek, o'quvchilarda shakllantirish lozim bogan sifatlari haqida aniq fikrlarni uchratmadik. Ayniqsa o'zbekona sifatlari, milliy tarbiya haqida fikrlar aniq ko'rsatilmagan. Demak o'qituvchilarga ma'naviy – axloqiy tarbiyani shakllantirishni tizimli amalga oshirishda o'qituvchilar ma'lumotini ancha oshirish zarur.

### *3.3. Ta'lim jarayonida o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari.*

Keyingi yillarda islohotlarning natijasi tufayli ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliylikimiz tiklanib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari ochil-di.

Mustaqillikdan keyingi qisqa davr ichida yoshlar uchun mukammal sharoitlar yaratildiki, buni yurtimizda qad ko'targan zamonaviy maktablar, akademik-litsey va kollejlarda hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga o'tmish madaniy merosimizni o'rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan holda milliy qadriyatlarni zamonlar sinovidan o'tgan progressiv tomonlarini tiklash, ularni chuqur o'rganishga kirishildi.

Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosda barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ajoyib, ilg'or fikrlar borki, bu fikrlar bugungi taraqqiyotimiz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Jumladan, Xorazmiy, Beruniy, Ibn-Sino, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Ali Qushchi, jadidchilar Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitratlarning xizmatlari kattadir. Milliy merosimizni o'rganish, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarni rivojlantiruvchi eng muhim tayanch hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganimizda, sobiq sovet tuzumi davrida xalqimizning qadrsizlantirilib yuborilgan insonparvar g'oyalari, ma'naviy, milliy qadriyatlari va ularning afzalliklarini o'rganib chiqish ma'naviy - axloqiy tarbiyaning muhim omilidir.

Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam ma'naviy e'tiqodga ega bo'lgan, axloqli yoshlarni tarbiyalash bugun zaruratga aylandi hamda davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqati nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, avf (kechirimli bo'lish).

Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrof-dagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiradi.

Abdulla Avlniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g'azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o'z bilarmonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (ta'ma, hirs), rahovat (g'ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), g'iybat, haqorat, jibonat (qo'rqqoqlik), hasad, kizb (yolg'on), nifoq, ta'ma, zulm va boshqalar.

Buyuk ma'rifatparvarning bu ko'rsatmalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p bor mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalik muhim va dorzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir"<sup>4</sup> deganida jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiyaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edi.

O'quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo'lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o'quvchilarga xulq-odob me'yorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalashda dars jarayonidan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturida ko'rsatilgan xalqimizning asrlar davomida yaratgan ma'naviy qadriyatlarini, insonlarning muomala madaniyati, ilmning qadri haqidagi va boshqa mavzular ma'naviy axloqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday mavzularni o'rganishda o'quvchilarni qiziqitirish va ularni jonli muloqotga undash muhimdir.

Ma'naviy madaniyat bu shaxsning tashqi olam, xolat ichki kayfiyatlar ta'minlash, erkparvarlik orqali qabul qilib olish jarayonidir. Bunda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, shaxsning ijtimoiy tuzum to'g'risidagi qarashlari ma'naviy madaniyatning negizini tashkil etadi va uning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi.

Shaxs ma'naviy madaniyatining asosiy manbasi bo'lgan ma'naviy ruhiy qadriyatlar, fan, adabiyot, san'at, maorif, din komil insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy madaniyat aqliy, siyosiy,

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 62- b

iqtisodiy, xuquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy ma'niyat kabilardan tuzilganidir. Bular ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi yoki alaba jamiyatning har bir a'zosi ongiga singdiriladi.

Aqliy madaniyat - jamiyat va tabiat qonun qoidlariga munosabat; xodisalar va ularning bir - birlari bilan bog'liqligi; insoniyat hayoti, turmush tarzi; jamiyat taraqqiyoti xaqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, yaxlit idrok etish, takrorlash, tasavvur va tafakkur etish xolatlari jarayonida shakllanadi. Aqliy madaniyat ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qismlarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy madaniyat bu -insonparvarlik, xalol, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, xaqiqatgo'ylik, ma'suliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklikkabi tushunchalar majmuasi bo'lib insonning ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanadi va takomillashadi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida shaxsning ulq -atvori, xattixarakterlarini boshqarish tizimidir.

Axloqiy madaniyatning negizini ahloqiy ong taskil qilib, u vijdon, burch, ma'suliyat, xayo, guruh kabi insonning ichki ruhiy xislatlariga asoslanadi. Axloqiy madaniyatning asosiy poydevori axloqiy odat bo'lib, u shaxsning aniq maqsadni ko'zlab, doimiy, izchil uyushtirilgan faoliyati, jamiyat a'zolarining o'zaro madaniy munosabatlari, o'zaro ishonchlari, aloqalari zahirida maydonga keladi.

Ma'naviy madaniyatning yana bir mezonini estetik xislat bo'lib, u insonni o'rab turgan muhitga munosabatidir. U hayot xaqiqatini o'zlashtirishning, ijodiy fikrlash qobiliyatini ta'minlashning asosiy bosqichidir: u insonda ijobiy maqsadlar paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, badiiy kitoblarni o'qishni inson hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashiga ta'siri.

Ma'naviy madaniyatning yana bir tarkibiy qism bo'lgan siyosiy madaniyatsiz ma'naviy qadriyatlarining mohiyatini to'liq tushunib, to'liq anglab bo'lmaydi.

Siyosiy madaniyat bu ijtimoiy faollikning jamiyat oldidagi ma'suliyat, ijtimoiy va ma'naviy javobgarlikni xislat etish, xaqiqat uchun kurashish, burchga sadoqat, millatlar, elatlar o'rtasidagi do'stlik va xamkorlik, so'z va faoliyat xamkorligi, tinchlik, tenglik, ozodlik va o'zligini

anglash kabi mezonlarini o'z ichiga oladi. Siyosiy madaniyat faqat erkinlik, ozodlik va mustaqillik sharoitida o'zini to'la namoyon qiladi.<sup>5</sup>

Jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishida diniy ta'limot, ya'ni asrlar davomida tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelayotgan diniy ma'naviy qadriyatlar ham muxim rol o'ynaydi. Din siyosat bo'lmasdan u ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir.

Biz yuqorida sanab o'tgan ma'naviy qadriyatlar mezonlariga amal qilish yaxlit tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy madaniyatning shakllanishida asosiy yo'nalishni beruvchi metodologiya quyidagi muammolarni yechishda xizmat qilmog'i lozim:

1. Milliy ukuv muassasasi negizida ta'lim- tarbiya tizimini milliy lashtirish;

2. Har bir jamiyat a'zosi xatti-xarakati, hulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirishda tayanch bo'lish;

3. Shaxsni milliy, umumbashariy madaniyat manbalarining mohiyatini chuqur anglab yetishida dasturiy yo'llanma berish;

4. Shaxsni madaniy qadriyatlar orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishida tug'ri yo'llanma berish.

O'quvchilarida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalashda sharq mutafakkirlari ijodidan foydalanish ijobiy samara beradi

Sharqning buyuk mutafakkirlari va allomalari o'zlarinng butun ijod faoliyatlarini shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratganlar desak aslo mutarbiyalanuvchig'a qilmagan bo'lar edik. Aynan ana shu xususiyati bilan sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatleri g'arb mutafakkirlariniki bilan farqlanib turadi.

Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida mardlik, tug'riso'zlik, ma'rifat bulog'idan baxramand bo'lish sari kuchli darajadagi intilish, mexnatsevarlik, katta yoshdagi kishilarga xurmat- ehtirom bilan munosabatda bo'lish, davlat va xalq manfaatlarini o'z manfaatidan ustun ko'rish, shuningdek sadoqatli sevgi-muxabbat kabi insoniy fazilatlar o'z ifodasini topgan bo'lib, shoir shu orqali shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish asoslarini ko'rsatib berishga xarakat qilgan.

Farxodga mamlakatni boshqarish imkoniyati berilganda, u o'zining xali ancha yosh ekanligini, bu borada xali tajribaga ega emasligini, bu ishni undan yoshi katta bo'lgan va davlat boshqaruvi bo'yicha ancha tajribaga ega bo'lgan kishilar qo'lga olsa yaxshi bo'lishini ta'kidlab bu taklifni qabul

---

<sup>5</sup> O. Imomaliyeva "Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uslublari" BMI 2005.

qilmaydi. Vaholanki, Farxod bu borada yaxshi ilm va mahoratga ega ekanligi bilan saroy ayonlari o'rtasida ham, oddiy xalq orasida ham yaxshigina shuxrat topgan edi. Shoir Farxodning ushbu xatti-xarakati bilan qo'yidagi ma'naviy madaniyatni rivojlantiruvchi fazilatlarini ko'rsatib berishga xarakat qilgan:

1. O'zini-o'zi baxolay bilish va biror- bir yuklatilayotgan vazifa bo'yicha mas'uliyatni chuqur xis qila bilish.

2. Biror-bir ish yuzasidan qaror qabul qilishda shoshmasdan uzoqni ko'rib xarakat qilish.

3. Yoshi katta va tajribasi ko'p bo'lgan odamlarga xurmat bilan munosabatda bo'lish va ular tajribasidan o'rnak olishga intilish.

4. Mansabparastlik illatidan o'zini yiroqda tutish.

Shuningdek, soxibkiron Amir Temur bobomiz ham o'z tuzuklarida juda ko'plab tarbiyaviy axamiyatga molik bo'lgan ko'rsatmalarni berib o'tgan.

Ayniqsa, u kishining davlat boshqarish faoliyatiga faqat va faqat adolat bilan yendashish kerakligi, ilm-ziyo axliga doimo adolatli munosabatda bo'lish kerakligi, kambag'al fuqaroga doimo mexr-muruvvat ko'rsatish kerakligi va milliy qadriyatlarni barqaror tarzda ximoya qilish kerakligi tug'risidagi fikr-muloxazalari bevosita ma'naviy madaniyatni shakllantirishda juda katta axamiyatga egadir.

Biz ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatida tutgan o'rni xususida ushbu mavzuning oldingi bo'limlarida qisman to'xtalib o'tgan edik. Umuman olganda ma'naviy qadriyatlarning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishda tutgan o'rni quyidagilar orqali ifodalashimiz mumkin:

1. Ma'naviy qadriyatlar har bir millatning o'z ona tilida yaratilganligi tufayli ushbu tilning naqadar jozibali ekanligini namoyon etadi. Bu esa shaxsda o'z ona tiliga bepisand bo'lmaslik tuyg'usini rivojlantiradi.

2. Ma'naviy qadriyatlar har bir millatning o'zligini namoyon etadi. Chunki, ular bevosita shu millatning ruxiyati asosida shakllangandir.

3. Ma'naviy qadriyatlar har bir shaxsni o'z xalqi va vatani tarixini sevishga, o'z ajdodlari bilan har lahzada faxrlanishga undaydi.

Ushbu aytib o'tilganlardan ko'rinib turganidek, ma'naviy qadriyatlarni kadrlash, ulug'lash va rivoj toptirish har bir o'z xalqiga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'ladigan ma'naviy barkamol insonning muqaddas burchidir.

Ma'naviy madaniyat va uning shakllanishining pedagogik xususiyatlari, shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishga yangicha yondashuv, sharq mutafakkirlari ijodida ma'naviy madaniyatni shakllantirish



hamda ma'naviy qadriyatlar va ularning shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi roli xususida ajoyib fikrlar bildirilgan. Ayniksa, Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonidan va "Temur tuzuklari" dan keltirilgan misollar mavzuni tushunarli tarzda bayon etilishiga imkon yaratgan.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezonini sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptrishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomila munosabat masalalarini ham hayotiy masalalar vositasida yoritadi. Katta yoshdagilarning kichiklarga. Kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolari bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomila madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasiga, uning tug'ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini bilim va hunarni o'rgantish, buning uchun pok va bilimli muallim -murabbiy tanlash, farzandlarning hatti-harakatini doimo nazoratda saqlash, kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Olim ulug' va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalarini haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi o'gitlari diqqatga sazovor va uning bu fikrlari hozirgi davrda ham qimmatli sanaladi. Olimning beklar, hojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshlar, devon boshlar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odob haqidagi amaliy o'g'itlar va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi. Masalan, har bir amaldorning o'z ishining ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalar borasida fikr yurita oladigan. So'zga chechan, zehni, fahm-farosatli, himmati baland, ko'zi to'q, ochiq qo'l, sahiy, tadbirli, zukko, xushr, jiddiy, qanoatli, jasur. Sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'zi so'zi ustidan chiqadigan, andishali, she'r bahsida ishtirok etib, o'zi ham she'rlar to'qiy oladigan, turli tillarni bila oladigan va o'zi shu tillarda gaplasha oladigan, turli yozuvlarni bila oladigan va yoza oladigan, nard, shatranj, chavgon o'yinlarda o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Shuningdek xar bir insonning kamolga yetishida to'sqinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham holi bo'lishi lozimligi o'qtriladi: ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, fisqu-fasot, maishiy buzuqlik, mayparastlik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, xiyonat, davlat ketidan

quvish, manfaatparaslik, xudbinlik, boshqalarning haq-huquqini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar shunday illatlar ediki, buning natijasida davlatning rivojiga putur yetkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlikka olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslaxat beradi.<sup>6</sup>

Yusuf Xos Hojib oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni o'ylanib, oila qurishdan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zarur vazifalarni birma-bir bayon etadi. Shuningdek, yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtiyot qilish, yigitlik davrida qarlikni g'amini yeyish kabi eng zarur narsalar haqida ham tavsiyalar beradi.

Yusuf Xos Hojib insonning haqiqiy kamolga yetishida aqliy va axloqiy tomondangina emas, jismoniy tomondan ham sog'lom bo'lishi kerakligini katta e'tibor beradi.

Shuningdek, olim insonning turli marosimlar, yig'inlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda o'zini tutish, xulq-odob qoidalariga rioya etishi haqida ham fikr yuritib, insonning mezbonlik va mehmonlik ovozlik qoidalari, shartlari, tartib intizomlari haqida ham muhim o'g'itlar beradi. Masalan, "qutadg'u bilig"dagi elchilar (diplomatlar) huzurida, shoxlar saroyda, to'y va azalarda qilinadigan mehmondorchliklarda kishi o'zini qanday tutishi, hatti-harakati, odobi masalalari xozirgi davrda ham o'ta dolzarbdir.

Yusuf Xos Hojibning o'zi kishilarga munosabatda o'rtamiyona yo'l tutishni tavsiya etadi. Shunda do'st dushmanga aylanmaydi, ezgu ishlar amalga osha boradi, deb ta'lim beradi.

"qutadg'u bilig"da yana jumboqlarni yechish uslubidan ham foydalanilgan. Bu uslub o'quvchini asarga qiziqtiradi, uni o'qimishli qiladi. Hozirgi davrda muammoli ta'lim deb yuritiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, asar insonni baxt-saodatga yo'llovchi barcha ezguliklarning yo'llari. Usullari, uslublarini bayon etishi bilan ta'lim tarbiya tarixida birinchi va yirik darslik sifatida o'z o'rniga ega.

Xulosa qilib aytganda Yusuf Xos Hojibning biz tahlil etgan mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-axloqiy dostonidir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Aqliy kamolot-bilim va zakovat.
2. Axloqiy kamolat.
3. Jismoniy kamolat.

---

<sup>6</sup> D. Solixov "Sharq mutafakkirlari asarlarida ta'lim tarbiyaga oid qarashlari" BMI 2004.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo'l-yo'riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Bu usul yo'l-yo'riqlar, fuqarodan tortib, yurt boshlig'i Eliggacha zarur bo'lgan, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir.

Ma'naviyat esa xalqning asrlar davomida shakllangan hayot tarzi bo'lib, xalqning ta'lim- tarbiyaga oid qadriyatlari ana shu ulkan taraqqiyotning uzviy qismi bo'lib hisoblanadi. Unda yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo'llangan usullar, milliy urf-odatlar, an'analar, tarbiyaga oid g'oyalar mujassamlangan. Bu g'oyalar esa allomalarimizning boy ijodiy meroslarida o'z aksini topgan. Ana shunday ijodiy meros qoldirganlardan biri, ya'ni asrimiz boshida madaniy hayotimiz taraqqiyotida muhim o'rin egallagan inson- Abdulla Avloniydir.

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan so'ng 12 yoshida madrasaga o'qishga kirdi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtlarda o'qir edi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. Dastlabki she'rlari "Tarjimon" gazetasida bosiladi. U o'zining dastlabki she'rlarida va "Hijron" degan maqolasida xalqni yangi usul ukuv muassasalarida o'qib- o'rganishga targ'ib qildi. Abdulla Avloniy 1907 yilda "Shuhrat" va "Osiyo" nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yopitirib qo'yadi. A. Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" (1918) gazetalarida, "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotining zabardast vakili, o'zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi.

A. Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g'oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. U 1907 yili "Shuhrat", "Osiyo" nomli gazetalar chiqarib unga muharrirlik qiladi.

Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi fasi haqida fikr yuritib, "Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol-olamdan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g'oyalarini yoyuvchidir" deb, aytadi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi, butun faoliti davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir. A. Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda "Turon" nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabat bo'lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilishi va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. M. Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida quyidagilarni keltiradi:

Avloniy trupa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki muhabbat", "Portug'oliya inqilobi" kabi dramalar yozdi, "qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin", asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi". Ammo bu asalari nashr qilinmadi.

1916 yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, "Turon" trupпасi bilan birga "Layli va Majnun" spektaklini qo'yadi. Avloniy bu spektaklda Kaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a'zolari bilan Avloniy 1914-1916 yillarda farg'ona vodiysida gostrollarda bo'ladi.

Abdulla Avloniy 1917 yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy- ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar xarakatining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan edi. A. Avloniy ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "Usuli jadid", ya'ni yangicha ilg'or usuldagi ukuv muassasalari ochdilar va bu ukuv muassasalarda oddiy xalq bolalarini o'qitdilar. Ular o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo'lda fidoiylilik ko'rsatdilar.

Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi ukuv muassasalar ochdi. Ukuv muassasalardagi o'quv asbob- jihazlarini o'zgartirdi, o'z quli bilan doska va partalar yasadi. Ukuv muassasasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning asosiy qismini kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun kiyim- kechak, oziq- ovat, daftar- kalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati hayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "maktab kutubxonasi" nomli kitob dukanini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'yan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi

asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktabidan farq qiladi. U o'z ukuv muassasasida tarbiyalanuvchilarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

A. Avloniyning ilk toliblaridan biri, Toshkent Davlat universitetida uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy Avloniy Mirobodda tashkil qilgan ukuv muassasasi haqidagi xotiralarida shunday deb yozgan edi:

“Shaharning qarama-qarshi chekkasida temir yo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi ukuv muassasasi ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu ukuv muassasasining fazilatlarini haqida shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: “Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish”, - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch- to'rttamiz borishga jazm qildik.

O'quv muassasasi pastakkina, nim qorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va domlarning shogirdlari ko'p edi. Xayolimizda domlarning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bolalarimizning oldi bir necha yildan beri o'quv muassasasiga qatnab yurgan bo'lsalar ham mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabarlarini bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizning eski ukuv muassasamiz bo'shab, miroboddagi Abdulla Avloniy ukuv muassasasi bizdan borgan tarbiyalanuvchilar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu ukuv muassasasi tobora shuhrat topib bordi”.

A. Avloniy “Usuli jadid” o'quv maktablari uchun to'rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, o'quv maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida “Birinchi muallim”i ham o'ziga xos o'rniga ega; “Birinchi muallim” 1917 yil to'ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan.

Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning "Ustoz avval"iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobi "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atasak joiz bular, desak xato blmas. Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi:

Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayot ehson qilur,  
Maktab g'ami vayron qilur,  
g'ayrat qilib o'king, o'g'lon!  
Maktabdadur ilmu kamol,  
Maktabdadur husnu jamol,  
maktabdadur milliy hayol,  
g'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Bu she'rda Avloniy o'quv muassasasini insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi.

Kitobdagi berilgan dastlabki ikki hikoya "Saxiylik" va "Baxllik" deb nomlangan. Birinchi hikoyada o'sha davr turmushiga xos bo'lgan voqea tasvirlanadi. Said ismli tarbiyalanuvchining otasi har kuni o'g'li o'quv muassasasiga ketishi oldidan unga 10 tiyin ovqat puli berardi. Bir kuni Said o'quv muassasasi yo'lida faqir kishini uchratadi.

"O'g'lim, ikki kundan beri ochman, taom olib yey desam ustimdagi yirtiq chopondan boshqa hech narsam yo'q",- deydi u. Said qo'lidagi 10 tiyini beradi va o'sha kunni ovqatlanmasdan o'tkazadi. Otasi o'g'lonning olijanobligidan mamnun bo'ladi, "Saxiy Saidim" deb olqishlaydi. Ertasi 20 tiyin berib yuboradi.

"Baxillik" hikoyasida bir badavlat kishi misolida uning baxilligi, xasisligi, ziqnaligi va pastkashligi ko'rsatiladi.

"Bir baxil kishining uyiga bir necha do'stlari mehmon bo'lib keldi. Baxil mehmonlarni ziyofat qilish o'rniga behuda so'zlarni so'zlab o'tlirdi. Oradan ko'p vaqt o'tgandan so'ng xizmatchisini chaqirib: "Bor taom pishgan bo'lsa, olib kel"-dedi. Shul vaqt xizmatchi bir toboqda pishgan xo'rozni olib kelgan zamon, baxil xizmatchisiga boqib: "Boshini nima qilding?"-dedi. Xizmatchi: - Afandim! Nima qilur edim, tashladim, - dedi. Baxil: - He nodon, kishi xo'rozni boshini ham tashlarmi? Agar bir kishi tovuqning oyog'ini tashlasa, men borib olur edim. Bosh a'zolarining xo'jasidir. Xo'roz ul bosh ila anday yaxshi qichqirar edi. Marjon kabi toji ham boshida edi. Eng shirin a'zolaridan sanalgan tili, eng ulug' a'zolaridan miyasi, ikki shahlo ko'zi,

barchasi boshida edi. Bor, topib kel, biz yemasak mehmonlarga yedirurmiz, dedi”.

Turli ma’rifiy -madaniy g’oyalar va tushunchalar, vatanparvarlik tuyg’usi, millat, xalq manfaatleri, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy ravnaq, ma’naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalash, ma’naviy ehtiyoj, umuminsoniy va milliy-qadriyatlar, ta’lim-tarbiyaning mazmuni, ma’naviy madaniyatni shakllantirish, milliylik, moddiy boyliklar, axloqiy madaniyat negizi.

Ular o’quvchilarda vatan tuyg’usini, undan g’ururlanish, uni sevish sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa insonni ma’nan boyishiga vatanda yashab o’tgan allomalar, ularning hayotini o’rganish va yaratgan asarlarini o’rganishga ishtiyiqni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### *3.4. O’quvchilarida ma’naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalashda sinfdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy ishlarning o’rni.*

O’quvchilarda ma’naviy axloqiy sifatlarni tarbiyalashda sinfdan tashqari ta’lim tarbiyaviy ishlarning ahamiyati beqiyos. Insonlarda ma’naviy axloqiy sifatlarning shakllanishio’z-o’zidan sodir bo’ladigan voqea emas. Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o’qish, kinofilm va spektakllarni tomosha qilish, maxsus tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo’la boshlaydi. O’quvchilar o’zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma’naviy-axloqiy mavzularda o’tkaziladigan suhbat va munozaralarda o’quvchini fikr yuritish, o’ylashga yo’naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, «Kamol qanday qilib narkomanlar davrasiga tushib qoldi?», «Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?», «Zamonaviylik – bu nima?» kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o’quvchilarni o’ylash, fikr yuritishga yo’llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o’rganishga bo’lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o’z xatti-harakatlarini baholashga bo’lgan intilishlari va ishonch, e’tiqodlari shakllanadi.

Debat, munozara va suhbatlar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag’ishlanishi zarur.

Bunda o’quvchilarni qiziqitirish va ularni jonli muloqotga undash muhimdir.

O’quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o’rgatish, pedagogik talab qo’yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

Lekin o'quvchilarni faol, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etmasdan turib, axloqning biror turiga mos tarbiyalab bo'lmaydi. Bunda mashqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish asosida shaxsning u yoki bu axloqiy xislati shakllanadi va amaliy faoliyatga aylanadi.

Rag'batlantirish metodlariga mukofotlash va ma'qullash kiritiladi.

Bugungi kunda shartnomalar tuzish, o'z-o'zini shakllantirishga doir shaxsiy dasturlarni loyihalash, o'quvchilarni qiziqishlariga ko'ra tabaqalashtirish monitoringi, testlar, jarimalar (ball hisobida) kabi tarbiyaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Hozirgi davrda yoshlar o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan «Zakovat», «Intellectual ring», «qizlar davrasi», «O'yla, izla, top!» kabi o'yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.

Bu borada tarbiya jarayonida o'quvchining axloqiy, ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samarali natijalar beradi. Bunday tarbiya o'quvchilarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch, axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglash, ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yo'llaydi.

Ayniqsa, bahslashish, ishontirish treninglarida o'quvchi-yoshlarning faolligi, liderlik sifatleri, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. O'zgalar fikrini hurmat qilish, ishontirish, o'z fikrini asoslash, munozarada qatnashish mahorati paydo bo'ladi. Shuningdek, mulot madaniyati, his-tuyg'ularini jilovlay olish, fikr yuritish mahorati shakllanadi. O'z ishiga mas'uliyat hissini shakllantirib, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, ma'naviy-axloqiy tadbirlarni loyihalashtirish, ko'ngilochar, tashhisli, ishchan va harakatli o'yinlar, ziddiyatlarni hal etishning turli uslublari (tanqid usullari – ruhlantiruvchi, ta'nali, umidli, qiyosiy), rag'batlantiruvchi (tanqid, vaziyatni yumshatuvchi, gina, tanbeh beruvchi tanqid - bularning barchasini insonparvarlik g'oyalari asosida olib borish ijobiy natijalar beradi.

Xalqni ijtimoiy jihatdan himoyalash hamda ma'naviy islohotlar o'tkazish, ya'ni qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, ota-bobolarimiz qadriyatlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish kabi vazifalarni amalga oshirish yo'lida respublikamizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, I.A. Karimovning "Milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotga tadbir



etish" haqidagi fikrlari biz tarbiyachi-muallimlarning ham harakat dasturimizdir. Chunki, istiqlol mafkurasi biz shu vaqtgacha amal qilib kelgan mafkuradan farq qilib, u xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, diniga va tiliga, ruhiyatiga, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, adolat, ma'rifat tuyg'ularini kishilar ongiga singdirishga asoslangandir.

Haqiqatan, respublikamizni taraqqiyot darajasiga ko'taradigan chinakam komil insonni shakllantirish- bu uning ma'naviyatini shakllantirishdir.

Maktab o'quvchilarida sinfdan tashqari tadbirlarni qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilarning bu tadbirlarda faol ishtiroki ularda ma'naviy - axloqiy sifatlarning shakllanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Biz quyida shunday tadbirlardan birini misol tariqasida keltiramiz:

«Navro'zi olam» ertaligi.

Ertalikning maqsadi:

Maktab o'quvchilarida milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqish va hurmatni tarbiyalash.

Navro'zning kirib kelishi bilan tabiatga bo'lgan munosabatni o'zgarishi, yoshlar qalbida tabiatga bo'lgan mehrni uygotish va kishilar mehnatidagi o'zgarishlarga doir bilimlarni berish.

Ona-tabiatni asrash, insonlarni bir-biriga nisbatan mehr- muhabbatli bo'lishni tarbiyalash iboratdir.

Navro'z bayrami xalqimizning eng qadimiy qadriyatlaridan biridir. Uni necha ming asrlardan buyon ajdodlarimiz nishonlab kelishadi. Navro'z kelishi bilan tabiat uyg'ona boshlaydi. Bu kun tabiatning o'zidan kelib chiqqan holda, kun va tun tenglashuvi, kunlarning uzayishi, dalalarda ishlarning avj olishi bilan, tabiatning uyg'onishi va yashillanishi bilan boshlanadigan xalq bayramidir. Shu munosabat bilan yurtimizning barcha shahar va qishloqlarida, korxonada, tashkilotlarida, maktabu-bog'chalarida "Navro'z" bayramiga bag'ishlangan sayillar, tadbirlar, namoyishlar, Bellashuv va ko'rik-tanlovlar o'tkaziladi.

Mana shu tantanaga tayyorgarlik ko'rishning o'ziyoq bolalarga benihoya zavq-shavq bag'ishlaydi. O'qituvchining bayramga atab devoriy gazeta chiqarishi, unda bahor, tabiatning tasvirlanishi ham bolalarda ko'tarinki kayfiyatni hosil qiladi. Biz yuqorida aytganimizdek, ertalik munosabati bilan bolalarning she'r yodlashi, qo'shiq va raqslarni, bahor, tabiat, hayvonlar to'g'risidagi topishmoq tez aytishni o'rganishlari ertalikni qizi-karli, ta'sirchan o'tishiga katta yordam beradi. Ertalik mazmunini boyita-digan obrazlar: Navro'zoy, Dexqonbobo, Gullar, Bahoroy, Quyosh bobo, hayvonlardan: Ayiqpolvon, Quyuncha, Olmaxon, Qushlarning

ishtiroki bayramga yanada ko'rk bag'ishlab bolalarning qiziqishini yanada oshiradi.

Ertalikka ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif qilinadi. Xonada nafis musiqa sadosi yangrab, sahnaga Bahoroy chiqib keladi.

Bahoroy: Salom aziz bolalar,  
Mehribon onajonlar,  
Qalbi nur va ilmga,  
Mehr xamda bilimga,  
To'la mening ustozim,  
Salom keltirdim Sizga.

deb, barchaga ta'zim kilib, Bahoroy so'zida davom etadi: Aziz bolalar, qadrlil ota-onalar, muallimlar barchangizni bahor bayrami «Navro'zi olam» bilan muborakbod etaman. Men sizlarga qir-adirlar, keng dalalar, boglar, do'stlarimiz bo'lmish hayvonlar, qushlar nomidan qizgin tabrik va salom keltirdim.

Bolalar: Raxmat, senga Bahoroy.

Bahoroy: Aziz mehmonlar, bugun "Navro'z" bayrami. Keling go'zal Navruzoyini qarshi olaylik (hamma qarsak chaladi), sahnaga boshiga gulchambar kiygan, qo'llariga gullar dastasini ko'targan Navro'zoy kirib keladi.

Bolalar barchalari jo'r bo'lib, Navro'zoyini qarshi olishdi:

Salom senga Navro'zoy!  
Fasli bahor elchisi,  
Xush kelibsan davraga  
Tabiat darakchisi.

Navro'zoy:

Salom, aziz bolalar,  
Sho'x-shodon durdonalar,  
Salom keltirdim sizga  
Tabiatim, onamdan.

Bahoroy:

Bahor kelsa yashnar olam,  
Yashnar dillar, sho'x ko'ngillar.

O'zbekiston yurtim bo'ylab,  
Sayrar xushovoz bulbullar.

Navro'zoy Uyg'unning «Bahor» she'rini aytadi:

Suvlar shildirab oqar,  
Qo'shig'i dilga yoqar.  
Bizga shodlik keltirding,

Salom senga, gulbahor.

Hamma qo'shiq aytishadi:

Binafshajon binafsha,  
Yurishlaring chiroyli.  
Davramizda ochilib,  
Turishlaring chiroyli.

Navro'zoy: Rahmat aziz bolalar, ajoyib qo'shiq aytdingizlar. Men o'zim bilan birga bahor eichisi bo'lmish boychechak, binafsha, chuchmomaoylarni olib kelganman.

Bahoroy: Qani bolalar ularni qarshi olaylikchi. Bolalar «Boychechak» qo'shig'ini ijro etadilar, gullar birin-ketin kirib kela boshlaydilar.

Bahoroy: Bolalar, siz yurtimizda o'sadigan yana qanday gullarni bilasiz?

Bolalar: atigul, ra'nogul, gulsafsar, qizgaldog, gultojixo'roz, karnaygul va boshqalar.

Navro'zoy: Bahor faslida qanday tabiat hodisalari bo'ladi?

Bolalar: Yomg'ir, shamol, do'l, momaqaldiraq, chaqmoq.

Binafsha: Bolalar bir oz sovuq yegandek bo'ldim, kelinglar saxiy va mehribon Quyosh bobomizni chakira kolaylik.

Bolalar: Kuyosh bobo, mehribon bobo!

Quyosh bobo: Shu yerdaman bolalarim,  
Jajji, sho'x lolalarim,  
Yordamga shayman har dam,  
Kelurman, ildam, ildam,  
Sovuq yebsiz-ku bir oz,  
Isining, bulursiz soz.

Navro'zoy: Bolalar quloq tuting,  
Tashqarida nimadir,  
Qilmoqda, shitir, shitir.

Bolalar: Bu yomg'ir. (hamma «Yomg'ir yog'aloq» qo'shig'ini kuylaydi.)

Lola: Savolim bor sizlarga  
Siz jajji yulduzlarga,  
Tog'da nega erir qor,  
Nega to'lib-toshar anhor?

Bolalar: Chunki, Bahor keldi.  
Chuchmoma: Siz aziz bolajonlar,  
Topag'on qaqajonlar,

Bilim egallab rosa,  
Bo'libsiz aqli raso.  
Lola: Tinglang, bordir bir savol,  
Urinib ko'ring, bir bor,  
Do'stlaringiz kim erur,  
Kuylar soz navolarda?

Bolalar: Bular bizning do'stlarimiz - qushlar, xayvonlardir.

Bahoroy: Keling bo'ulmasa bolalar ularni qarshi olaylik.

Davruga qushlar, kapalak, hayvonlardan: ayiqpolvon, olmaxon,  
quyonchalar kirib kelishadi. hamma qarsaq chaladi.

Bolalar: Zafar Diyorning «Kapalak» nomli she'rini qo'shiq qilib  
kuylashadi:

Hoy kapalak, kapalak,  
Qanotlaring ipakdek;  
Muncha shoshib uhasan,  
To'xta so'zlayin andak  
Kapalakjon, kapalak,  
Qanotlaring ipakdek;  
Do'st bulaylik ikkimiz,  
To'xta, so'zlayin andak!

Hayvonlar orasidan Ayiqpolvon chiqib, bir dam kerishib oladida:

Uxlabman rosa to'yib,  
Ovozingiz eshitib,  
Sergak tortibman, bir dam,  
Qarasam, kelib Bahor,  
To'lib oqmoqda anhor.  
Qani asal yalasam,  
Mazza qilib quvnasam.

Qushlar Zafar Diyorning «G'unchalar» she'ridan parcha aytishadi:

Vatan agar bo'lsa bir chaman,  
Siz qo'ynida xandon g'unchalar  
Ay siz mening kichik do'stlarim,  
Vataningiz sevar shunchalar,-

Quyosh bobo davruga chiqib, bolalarga savol bilan murojaat qiladi:  
Bolalar sizga bir savolim bor, Bahorda qanday ishlar bajariladi?

Bolalar: Don, chigit, daraxt, gullar, sabzavotlar ekiladi.

Navro'zoy: Bolalar, qaranglar, kim tashrif buyuraytilar.

Bolalar: Dehqonbobo kelyaptilar. Assalom Dehqon bobo.

Dehqonbobo: Vaalaykum assalom, jajji nabiralarim. Bugundan  
boshlab yurtimizda mehnat pallasi, jo'shqin hayot vaqti boshlandi. O'zim

bilan sizlarga hamrohim, yaqin do'stim ketmonjonni, chigit polvonni,  
bug'doylarni birga olib keldim.

Bug'doyoy: Men har doim azizman,  
Liq-liq to'la mag'izman.  
Oltin kabi tovlanib,  
Qush kabi sollolanib,  
Bobo dexqon bilan birga  
Shoshildik davrangizga.

Chigitpolvon: O'zim kichik chigitman  
Juda polvon yigitman!  
Vatanim mening tuproq.  
Kuch olar tanim har choq.

Dehqon bobo: Balli aziz bug'doyim,  
Jajji yigitcham balli.  
Siz mening iftixorim  
Shon-shuhrat va madorim.

Bahoroy Shoir O'tkir Rashidning «Vatanim» she'rini aytadi:  
Chaman-chaman gullarga,  
Sayroqi bulbullarga,  
Ko'kni quchgan uylarga,  
Baxt keltirgan to'ylarga,  
Quvnoq va sho'x kuylarga,  
Joydir go'zal Vatanim,  
Boydir go'zal Vatanim.

Ertalikni yanada qiziqarli kilish uchun ishtirok etayotgan obrazlar-  
ning har biri bolalarga topishmoq bilan murojaat kiladilar.

Dehqon bobo: Uyning shiftida ini  
Kuylab berar har kuni  
Bahorda kutib olib,  
Kuzatamiz kuz kuni.

Bolalar: Kaldirg'och.

Quyosh bobo: Oyna emas jimirlar,  
Tek turolmas qimirlar.

Bolalar: Bu suv.

Naro'zoy: O'zi qizil, go'zal biram,  
Qirga yozar qizil gilam.

Bolalar: Lolaqizg'aldok.

Lolaoy: Kasbi doim taqir-tuqir,  
Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

Bolalar: bu Laylak.

Bahoroy: Bizga ruxsat endi bolalar  
O'z ishimiz tomon ketaylik.  
Kutmoqdadir bizni keng dala  
Vazifamiz ado etaylik.

Bolalar: Xayr senga go'zal tabiat,  
Xayr bobo dehqonim mening,  
Uchrashurmiz sen bilan har kun,  
Go'zal bog'im, ona-maktabda.

Ertalikda ishtirok etishgan barcha obrazlar, birin-ketin kechani tark etishadi. Ertalikda aktiv ishtirok etgan bolalar o'qituvchi va ota-onalar tomonidan takdirlanadilar.

Bu ertalik, ya'ni, «Navro'z» bayrami ertaligi orqali o'quvchilar yurtimiz tabiati, undagi bahor munosabati bilan bo'ladigan tabiat xodisalari, kattalar mehnati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Qolaversa, bu ertalik orqali bolalar ona-tabiatni asrashga, jonvorlarga ozor bermaslikka, teva-rak-atrofni ifloslantirmaslikka, daraxt va ko'chatlarni kupaytirish ishlariga o'z hissalarini qo'shishda qatnashadilar. Shu bilan birga o'quvchilar bu ertalik orqali, «Navro'z» bayrami xalqimizning e'zozlab keladigan qadriyatlaridan biri ekanligini anglab yetadilar.

Bunday ertaliklar o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilishi bilan birgalikda milliy qadriyatlarga qiziqish va o'rganish ehtiyojini vujudga keltiradi.

## XULOSA

Jismoniy tarbiya tizimining g'oyaviy negizi, insonni har tomonlama rivojlantirish, shaxsni har tomonlama garmonik tarbiyalash, jamiyatni rivojlantirishda faol insonlarni etishtirishdagi milliy mafkura va ma'naviyat tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning fikricha: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-marifatdir". "Aql – zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsak, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda faravonlik va taraqqiyot qaror topadi". "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. ("Muloqat" jurnali 1998 yil 5-son)".

Respublika fuqarolarining jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviy birligi, jismoniy tarbiyani mehnat va Vatan mudofaasi manfaatlariga yo'naltirish bo'yicha ish olib borilmoqda.

Jismoniy tarbiyaning xalqchilligi, birinchidan, uning maqsadlari xalqning hayotiy manfaatlariga, mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorgarlik manfaatlariga mos kelishidan, ikkinchidan, bolalarning yoshligidan boshlab gimnastika mashg'ulotlariga, o'yinlarga, sportga, turizmga muntazam ravishda izchillik bilan ommaviy jalb etishdan; jismoniy madaniyat va sportning har bir kishi turmushiga singib borishidan; uchinchidan, jismoniy mashqlarning ko'pchilik orasida keng tarqalgan xalq-milliy sport turlari va o'yinlari vositalari bilan bir qatorda jismoniy tarbiya vositalaridan keng foydalanishdan iboratdir.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya manfaatlari yuqoridagi ehtiyojlar bilan tugallanmaydi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya maqsadlarini aniqlashda ularni asosiy, hal qiluvchi ehtiyojlar deb hisoblash kerak. Shu sababli jismoniy tarbiya turmushda, xususan, umumiy ta'lim maktablarida joriy etilgan, chunki jismoniy tarbiya kishilarning sihat-salamatligini va mehnat qobiliyatini saqlash hamda mustahkamlash, ma'naviy xususiyatlar va irodasini chiniqtirish, bo'sh vaqtni topdirish va ko'ngil ochish vositasi deb hisoblanadi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyatning maqsadi, jamiyat madaniyatining bir qismi sifatida kishilarni jamiyat qurilishida faol ishtirok etishini unung talablarini qondiruvchi, jismoniy qobiliyatlarini hartamonlama rivojlantirishni ob'ektiv zarurati bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy tarbiyaning shu maqsadi respublikada jismoniy madaniyatni amalga oshiradigan barcha muassasalar va tashkilotlar uchun bab-barovar tegishlidir.

Bu maqsadni amalga oshirishda shaxsni har tomonlama kamol toptirish prinsipining amaliy va sog'lomlashtirish yo'nalishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Amaliy tavsiyalar.**

Biz, Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy merosini o'rganish asosida allomalarimizning, barkamol, komil insonni tarbiyalash xususidagi qarashlari bilan tanishib chiqib, undagi ilgari surilgan g'oyalar, bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod uchun naqadar zarurligini angladik. O'rganilgan ma'lumotlarga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Pedagogik faoliyatda, Sharq allomalari va mutafakkirlarining g'oyalaridan unumli foydalanib, ta'lim oluvchilarning intellektual, ma'naviy, ahloqiy sifatlarini shakllantirish, rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

- Talabalarni insoniyat erishgan boy qadriyat va an'analarga, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga tayangan holda, barcha fanning o'ziga xos ilmiy va amaliy asoslari bilan qurollantirish lozim.

- Tarbiya nazariyasi va amaliyotining ilg'or qarashlarini pedagogik jarayonga tadbiiq etish orqali, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish mumkin.

- Sharq allomalarining komil inson ta'lim-tarbiyasi xususidagi g'oyalariga tayanib, undagi tarbiya usullari va vositalaridan, bugungi kun-ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish ijobiy samara beradi beb o'ylaymiz.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. “Xalq so’zi”, 2016 yil 31 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni 2015 yil 4- sentyabr, O‘RQ-394-son//“Xalq so‘zi”, 2015 yil 5 sentyabr.
3. “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. // Halq so‘zi. – 1999. - 27 may.
4. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud ahloq. – Toshkent, O‘qituvchi, 1992.
5. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi metodikasi. Darslik. Toshkent – 2016 y.
6. Atoev A.K. Bolalarni chaqqon, epchil va baquvvat qilib tarbiyalash. Toshkent. “O‘qituvchi” 1981 y.
7. Tursunov O‘.T., G‘ofurov A.M., Arabboyev Q.T. Jismoniy madaniyat darsi nazariyasi. Qo‘qon. 2003 y.
8. Tulenova X.B. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. Ma‘ruzalar matni. Toshkent 2001.
9. To‘xtaboyev N.T. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2010.
10. Inoyatov U., Muslimov N., Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M. Pedagogika. Toshkent 2013 y.
11. Yo‘ldosheva R. A. O‘quvchilarni o‘yin vositasida tarbiyalash. //Sovet maktabi. 1993 №6.-16-18b.
12. Usmonxodjaev T.S., Abdullaev Sh.A., Soliev A.O., Abdumalikova E.N. Bolalar va o‘smirlar sporti asoslari. - T.: Zamon-Poligraf, 2014. – 189b.
13. Xonkeldiyev Sh.X., Abdullayev A. va boshqalar. Umumta‘lim maktabi o‘quvchilarining sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Uslubiy qo‘llanma. “Farg‘ona” 2011 y.
14. Internet saytlari:  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).  
[www.djti.uz](http://www.djti.uz)

Zaynobiddinov Dilshodbek Qobilovich

**JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA AHLOQIY,  
ESTETIK, AQLIY VA MEHNAT TARBIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

MONOGRAFIYA

«Andijon nashriyot-matbaa» MChJda bosildi.  
Buyurtma № 15. Adadi 25 dona.

